

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

5111200 - o`zbek tili va adabiyoti bakalavr ta`lim yo`nalishi

bitiruvchisi Adamboeva Nazokatning

«Umumta`lim maktablarida ertak janrini o`qitish usullari»

mavzuidagi

MALAKAVIY-BITIRUV ISHI

NUKUS - 2012

Malakaviy bitiruv ishi O`zbek adabiyoti kafedrası yig`ilishining 2012 yil «___»
_____dagi №__ bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

Fakul`tet dekani: f.f.n., dots. G.Qurbaniyazov

Kafedra mudiri: f.f.n., dots. K.Tashanov

Ilmiy rahbar: f.f.n., dots.I.Dilmanov

Adamboeva Nazokatning «**Umumta`lim maktablarida ertak janrini o`qitish usullari**» mavzusidagi malakaviy-bitiruv ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «___» ball («___%») qo`yildi.

«___» _____ 2012yil

DAK kotibasi:

O. Sultonova

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan yillarda xalqimiz hayotida buyuk o`zgarishlar sodir bo`ldi. Barcha jabhada, jumladan, iqtisodiy, madaniy, ilmiy, adabiyot, sog`liqni saqlash, ayniqsa, ta`lim sohasidagi, hech kimning hayoliga ham kelmagan mislsiz o`zgarishlar, rivojlanishlar yuz berdi. Xalq ta`limi sohasida olib borilayotgan tub islohotlar bugungi kunda o`z samarasini bermoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimovning yoshlarning o`qib bilim olishlari, xalqqa bilim berish sohasida jahon miqyosiga ko`tarilishiga g`amxurlik qilishi buning yorqin isbotidir. Yurtboshimizning «Birinchi navbatda, tarbiyachilarimizning o`zlariga zamonaviy bilim berish zarur, ularning bilimini, kasbiy malakasini oshirib borish kabi nihoyatda muhim masalalarda o`zibularchilikka yo`l qo`yib bo`lmaydi. Mening nazarimda ta`lim-tarbiya tizimining dolzarb masalasi ham ana shunda. O`qituvchilar farzandlarimizga davr talabiga mos bilim berishsin deb, talab qo`yamiz. Ammo, zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, o`qituvchining o`zi zamon darajasidagi bilimga ega bo`lishi zarur¹», deb to`g`ri ta`kidlaganidek, o`quvchilarga zamon talabiga mos bilim berish, faqat ustozlarningina vazifasi bo`lib qolmasdan, balki mamlakatimizning asosiy yo`nalishlaridan biriga aylangan.

Hozirgi tongda O`zbekistonning barcha maktablari singari, o`zbek tilida dars yuritilayotgan maktablar uchun ham davlat ta`lim standarti asosiy omil bo`lgani holda, o`quv jarayonini uzluksiz ravishda amalga oshirib kelmoqda.

Umumta`lim maktablari uchun barcha o`quv fanlari bilan bir qatorda, o`zbek tili va adabiyoti darslik va qo`llanmalar ta`lim standartiga mos ravishda yaratilmoqda. Maktab o`quvchilari o`z xalqining boy og`zaki ijodiyoti bilan birga taniqli shoir va yozuvchilar ijodini o`rganib, o`zining dunyoqarashi, ong va tafakkurini zamonga xos shakllantirib, yurtimizning barkamol avlodi bo`lib etishmoqda. Har bir sinfga mo`ljallangan fan dasturlari qayta tayyorlandi. Mazkur fan dasturlarida o`zbek adabiyoti va fol`klorning eng sara asarlari o`quvchilarga o`rgatilmoqda. Shuningdek, qardosh xalqlar adabiyoti, jumladan, qoraqalpoq, qozoq, turkman adabiyoti namunalarining o`qitilishi - xalqlar orasidagi asrlar bo`yi saqlanib

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, «Sharq», 1997, 7-bet.

kelinayotgan qardoshlik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Lekin, bu bilan maktablarimizda bugun hech qanday muammo yo`q, degan xulosa kelib chiqmaydi. Chunki, yil sayin maktabga, bilim berish sohasiga talab tobora kuchaymoqda, demakki, ushbu talablarni amalga oshirish ishlari, ortga surib bo`lmaydigan masalalardan hisoblanadi. Shunga ko`ra, maktablarda ona tili va adabiyotini o`qitishni yangi sifat bosqichiga ko`tarish, yosh avlodga hozirgi zamon talabiga mos bilim berish ishlarini uzluksiz turda yanada davom ettirish zarurligini hayotning o`zi taqozo etmoqda.

Shuningdek, adabiy ta`lim tizimidagi kamchiliklar, xususan, o`quvchilarning o`quv-biluv ko`nikma va malakalarini shakllantirish metodlari bilan bog`liq muammolar milliy mafkura g`oyalariga tayangan adabiyot o`qitish metodikasi oldiga qator masalalarni hal etish vazifasini qo`yadi. Zero, har qanday fan tabiat va jamiyat qonuniyatlarini kashf etadi, hayot hodisalarini o`rganadi, inson uchun shubhasiz muhim bo`lgan, lekin hali ilm-fanda e`tirof etilmagan yohud yangilanishga hayotiy ehtiyoj sezilgan masalalar echimini izlaydi va tushunturadi. Adabiyot o`qitish metodikasi ham fan sifatida bundan mustasno emas. Uning o`z oldidagi g`oyat muhim bu vazifani bajarishda o`qituvchi-o`quvchi hamkorligiga asoslanadigan jarayonning o`rni va roli beqiyos kattadir.

Ushbu masalalarni mantiqan qo`lay echish uchun, har bir fanning o`quv metodikasini qayta ko`rib chiqish, uni yangi zamon taraqqiyotini qo`llash orqali takomillashtirish lozim bo`layotgan bir paytda, har bir o`qituvchi yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan o`z darslarida a`lo darajada foydalanishlari shart.

O`zbek adabiyoti fani maktablarda o`qitiladigan asosiy fanlardan hisoblanadi. Adabiyotning yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirish, uni yuksak fazilatga ega inson bo`lib etishishidagi roli va ahamiyati katta ekanligi hech kimda shubha tug`dirmaydigan haqiqat. Bu borada taniqli metodist-olim, professor Boqijon To`xlietovning tubandagi fikrini keltirish o`rinlidir: «Badiiy adabiyotning insonning ruhiy dunyosini, ichki olamini boyitishda, uning Inson sifatida shakllanishidagi ahamiyati nihoyatda kattadir. Ko`plab buyuk insonlarni eslasak, o`zlari erishgan

muvafaqqiyatlar zahirida badiiy adabiyotning o'rnini alohidaligini aniq ta'kidlaydilar¹» - deydi olim.

Adabiyot fanini o'qitishda yangi metodlar, usullar va boshqada metodik qo'llanmalar zarurligini maktab tajribasi ko'rsatib turibdi. Ilm-fan bir joyda to'xtab qolmaganidek, mana shu ilmlarni o'rgatish turlari ham to'xtamaydi, balki takomillashib, zamon talabiga mos o'zgarib boradi. Buning yorqin misoli tariqasida biz o'z ishimizda maktabda ertak janrini o'qitish orqali hozirgi yosh avlodga qadimda yaratilgan va xalqimiz asrlardan beri ardoqlab kelayotgan, ajdodlarimizning boy merosini atroflicha, chuqur o'rgatib, ularning ongiga etkazish masalalarini tahlil qilishni maqsad qilib qo'yganmiz.

O'rta maktabda o'zbek adabiyotining durdona asarlari bilan bar qatorda, xalq og'zaki ijodining bir qator namunalari ham o'qitiladi. Fol'klorning ertak janrining o'ziga xos xususiyatlari, ularda ko'tariladigan asosiy mavzular, dolzarb masalalar xaqida maktab o'quvchilariga elementar tarzda bo'lsa ham tushuncha beriladi. Inson hayotining taraqqiyot bosqichlarida yuz bergan tarixiy, ijtimoiy, siyosiy voqea va hodisalar ko'zgusi-fol'klor asarlari uzoq o'tmish davrlar tarixiga egadir. Ana shu tarixiy taraqqiyot jarayonida u tarkib topib, rivojlandi, o'sdi. Ertak qadimiylilik xarakteriga ega bo'lib, xalq og'zaki ijodining eng ko'p tarqalgan, ommaviy turlaridan biridir. Unda xalqning ming yillar davomida yig'ilgan hayot tarjibalari, tabiat va jamiyat haqidagi tushunchalari o'zining badiiy ifodasini topgan. Ertaklar fol'klor asarlarining boshqa turlari kabi avloddan-avlodga o'tib, og'zaki an'ana shaklida bizgacha etib keldi. Ana shu asarlarni to'plash vat adqiq etish borasida inqilobgacha birmuncha ishlar qilingan bo'lsa-da, asosan bu ish XX asr boshlarida avj oldi. Ma'lumki XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida rus olimlari: etnograflar, o'lkashunoslar, geograflar, arxeologlar, sharqshunoslar, chekka o'lkalardagi erli xalqlarning urf-odati, psixologiyasi, dini, duneqarashi hamda tarixi, geografiyasi, tili va etnografiyasi hamda og'zaki ijodini o'rganish maqsadida O'rta Osiyoga ekspeditsiya uyushtirdilar. Bu o'rganish o'z navbatida ham ilmiy, ham siyosiy ahamiyat kasb etgan, albatta. Garchand olimlar o'zbek

¹ Boqijon To'xlijev. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent, »Yangi asr avlodi«, 2006. 8-b.

xalq madaniyatini burjua sinfi nuqtai nazaridan turib o`rgangan bo`lsalar-da, ular tomonidan yo`l-yo`lakay to`plangan maqollar, topishmoqlar, ertaklar, afsonalar o`zbek fol`klori tarixida faktik materiallarning yig`ilishiga sababchi bo`ldi.

Ayniqsa, 1982 yilda chiqqan «Sart xalq ertaklari» to`plami<sup>1</sup> e`tiborga sazovordir. To`plamga kiritilgan «Xirsiddin polvon» ertagining variantini 1909 yilda o`qituvchi A.Vasil`ev Namangan uyezdi Yangiqo`rg`on rus-tuzem maktabining o`quvchisi Ismoil Buraimovdan yozib olgan va «Turkestanские ведомости» gazetasida nashr ettirgan. Bunday turkum ertaklarni ko`plab sanash mumkin. Lekin, shuni qayd qilish kerakki, bu asarlar bevosita ijrochilar og`zidan yozib olinmay, balki eshitgan shaxslar orqali to`plangan. Agar masalaga shu nuqtai nazardan qaraganimizda A.A.Divaevning to`plami² bilan N.P.Ostromuvning to`plami o`rtasida katta farq bo`lib, A.A.Divaev mahalliy xalq tili, urf-odatini bilgani holda, bevosita ijrochining og`zidan yozib olgan. N.Ostromov esa o`qituvchi va savodli odamlar orqali to`plagan. Shuning uchun ham A.A.Divaevning to`plami shubhasiz, ilmiy ahamiyati jihatidan N.Ostromov to`plamidan yuqori turadi.

To`plamdagi ertaklarning ko`pchiligi hozirgi kungacha aytilib kelinayotgan an`anaviy ertaklarning variantlari bo`lsa-da, ularda zamon, davrlar ta`siri sezilib turadi. To`plamga kirgan ko`pchilik fantastik ertaklar ijtimoiy mazmun, elementlar satiradan holi bo`lsa-da, xalq donologining namunalari o`z ifodasini topgan. «Uchta qimmat baholi so`z sotib olgan shahzoda» ertagining mazmuni mazkur fikrimizning dalili bo`la oladi. Bunda inson ongi taraqqiyotida mehnatning rolini to`g`ri tushungan xalq jamiyat taraqqiyotining rivojida nazariya bilan amaliyotning organik holda bog`lanishidan kelib chiqqan mehnat haqida to`g`ri mulohaza yurgizadi. Bulardan tashqarii, to`plamdagi ertaklar syujetida to`g`rilik bilan egrilik o`rtasidagi kurash misolida, insof, adolat, mehnat, zulm, maqtonchoqlik, xasislik, ayyorlik, kabi xususiyatlar qoralanadi.

¹ N.Ostromuv, Народные сказки, Tashkent, tipografiya B.r. Portsevyx 1892.

² A.A.Divaev, Etnograficheskie materialy. Skazki, poslovitsy, basni, zagadki, tuzemnogo naseleniya Syrdar`inskoy oblasti, SNP 1895

Xalq orasidan etishib chiqqan malakali o'zbek fol'kloristlari tomonidan shahar va qishloqlarga uyushtirilgan ekspeditsiya og'zaki ijodning yangi-yangi namunalarini aniqladi va yozib oldi. Ertakchilar og'zidan yozib olingan ertaklar haqida ilmiy fikrlar bayon etuvchi maqolalar yuzaga kela boshladi. M.I. Afzalov, B.Karimovlarning 1939 yilda chiqqan «O'zbek fol'klori» shular jumlasidandir. O'zbek xalq ertaklarida satira va yumor masalalari Hoshimjon Razaqovning monografiyasida¹ ham yoritilgan. Muallif, asosan, satirik va yumoriyatik ertak va latifalarning g'oyaviy yo'nalishi, o'ziga xos xususiyatlarini belgilash jarayonida Aldar ko'sa, Nasriddin afandi kabi an'anaviy qahramonlar obrazini aniqlab, o'rganishga harakat qilgan.

Qisqasi, o'zbek fol'klori, jumladan, xalq ertaklarini o'rganishda jiddiy ishlar qilingan. Bu qilingan ishlarning ahamiyati, avvalo, yozib olingan rang-barang boy materialning buyukligi, katta hajmi bilan belgilanadi. Olib borilgan tadqiqot ishlari ertaklar ustida yangi-yangi ilmiy asarlar yaratish mumkinligini ko'rsatib turibdi. Bizning mazkur tadqiqotimiz ham ana shu ishlarning qonuniy davomi sifatida yuzaga keldi va ertak janri maktab dasturidan munosib o'rin egalladi. Endilikda, yangi davr nuqtai nazaridan, ertak janrini o'qitishning yangi mazmuni paydo bo'lmoqda. Ayniqsa, yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, darslarga innovatsion yutuqlarni tadbiq qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan sanaladi.

O'zbek adabiyoti metodikasi bilan shug'ullanib kelayotgan respublikamizdagi olimlardan A.Zunnunov, B.To'xliiev, Q.Yo'ldoshev, B.Xotamovlar² tomonidan adabiyot o'qitish metodikasining har xil masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar yuzaga keldi. Ishimizda ularga tayanib, samarali foydalanishga xarakat qildik.

¹ H.Razzoqov, O'zbek xalq og'zaki ijodida satira va yumor. Toshkent, O'zdatbiynashr, 1965.

² Zunnunov. Adabiyot darslarida mustaqil ishlar. Toshkent «O'qituvchi», 1989. B.To'xliiev. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2006 y. Q.Yo'ldoshev. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari.. Toshkent, «O'qituvchi», 1996. Xotamov va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent. «Uqituvchi» 1984.

Maktablarda xalq ogʻzaki namunalari beshinchi sinfdan boshlab tanishtiriladi, xrestomatik tarzda oʻqitilib kelinadi. Boshqacha aytganda, pedagogika oʻquvchilarni oddiylikdan murakkablikga, tahlildan sintez sari oʻqitishni talab qiladi.

Bitiruv ishimiz ikki bobdan tashkil topgan boʻlib, ularda ertak janri asarlarini oʻqib oʻrganish masalalari bilan bir qatorda, oʻqitishning eng ilgʻor metodikalarini koʻrsatishni maqsad qilib qoʻydik. Birinchi bobda «Ertak janri va uni oʻqitish usullari» haqida soʻz boʻladi. Asrlar boʻyi maktab dasturidan tushmay kelayotgan ertak janrini oʻqitish boʻyicha koʻplab fikrlar aytilib, uslubiyotiga oid maqolalar eʼlon qilingani maʼlum. Shunday boʻlsa ham, jamiyatimizdagi oʻzgarishlar, milliy va maʼnaviy va ruhiy yuksalishlar, milliy mafkuramizning shakllanishi bu borada avval shakllangan tushuncha va yondashuvlarni qayta koʻrib chiqish, qayta oʻzlashtirish, qayta tahlil qilish ehtiyojini sezdirmoqda. Darslarni yangi pedagogik texnologiyadan foydalangan holda tashkil etishda, ayniqsa, fikr erkinligi, oʻquvchilarning faolligi faqat takrollashdan iborat boʻlmay, shaxsiy fikri, oʻzining nuqtai nazari pozitsiyasidan tahlil etish qobiliyatini rivojlantirish—mana shu masalalar mazkur ertak janrini oʻqitishda koʻplab masalani yangicha talqin qilish zarurligini taqozo etsa, ajab emas.

Shuningdek, ishimizning «Ertaklardagi obrazlar va ularni oʻquvchilarga oʻrgatish yoʻllari.» deb nomlangan ikkinchi bobida ham ertak janrini oʻqitishda qayta nazardan oʻtkazadigan masalalar bisyor ekanligi koʻzga tashlandi. Oʻtmish totalitar mafkura ertak janriga bir tomonlama qarab, oʻquvchi yoshlarga bir tomonlama bilim berganimiz ayni haqiqat. Ertak personajlarinini faqat ijobiy va salbiy deb ikki toifaga boʻldik, undan nariga oʻtmadik. Hozirgi milliy mafkuramiz esa oʻtmishga yangicha qarash, odilona, xolis boʻlish printsiptini oʻrgatadi. Shu bois, ertak janrining gʻoyaviy mazmunini oʻqitish

metodikasini yangicha talqin qilib, tahlil etadigan masalalar talaygina, deb, hisobladik.

Ishimizning xulosa qismida ikki bobda aytilgan, tahlil qilingan masalalarga fikr-mulohazalarimizni bildirib, umumlashtirdik, ya'ni, muayyan xulosalarga kelganimizni aniq ko'rsatdik. Albatta, bitiruv-malakaviy ishi ilmiy-tadqiqot ishiga qo'yiladigan talablarning barchasiga monand javob bera olmasligi aniq. Shunday bo'lsa-da, malakaviy ish talabaning o'y-fikrlari, izlanishlari asosida amalga oshiriladigan tadqiqot. Mana shu nuqtai nazardan olib qaraganda, biz ham ushbu ishimizni hozirgi zamon metodistlarining bu boradagi yutuqlariga tayanib, o'zimizning jo'yali fikrlarimizni qalam ostiga olishga harakat qildik.

I - BOB.

ERTAK JANRI VA UNI O`QITISH USULLARI

Adabiyot o`qitish metodikasida har qanday adabiy asarni o`qitishda eng avvalo, uni o`rganishdagi maqsad va vazifalardi aniqlab olish lozim. Maqsad va vazifa aniqlashmay turib, ya`ni mavzuni nima uchun o`rganishimiz zarur, nima uchun o`qib bilishimiz kerakligini anglamasdan, o`quv jarayonida muayyan muvaffaqiyatga erishaman, o`quvchilarning shu mavzuga nisbatan qiziqishini uyg`otaman, undan estetik zavq olaman, duniyoqarashimni kengaytaman, deyishning o`zi bekorchi gap. Boshqa turkiy xalqlar qatori o`zbek xalqida ham badiiy adabiyot o`qish, undan estetik zavq olish odatga aylangan. Bu haqda metodist-olim Boqijon To`xlievning mana bu fikrlari diqqatga sazovordir: «Xalqimiz azal-azaldan badiy adabiyotni tushinish, sevish, e`zozlay bilish, adabiy xodisalarni xis qilish, ayni paytda, bularning barchasini boshqalarg`a etkazishni o`zi uchun odat dep bilgan. Buni biz uzoq tariximizga nazar tashlab yaqqol bilishimiz mumkin¹».-deydi olim.

Fol`klor janrlari orasida ertaklar alohida mavqega ega. Ular xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida qurilgan, haqiqat va yolg`onni ajoyib bir tarzda o`zida uyg`unlashtirgan nodir estetik xodisadir. Ertaklar g`oyaviy tematik va badiiy xususiyatlari jixatidan xayvonlar haqidagi, sehrli, maishiy ertaklar kabi turlarga bo`linadi. Bu turlar obrazlar talqini, konflikt, syujet, kompozitsiya, fantastik uydirmalarning o`rni va funktsiyasi, til va uslubi jihati bilan bir-biridan farq qiladilar.

1. Xayvonlar haqidagi ertaklar: «Chuloq bo`ri», «Mehrigiyo», «Ko`k quchqor», «Oqqush», «Ayiqlar polvon», «Ilon pari», «Bo`ri qiz», «Bo`ri bilan tulki», «Tulkining taqsimoti».

¹ Boqijon Tuxdiev. Adabiyot o`qitish metodikasi» Toshkent. 2006 j.16-b.

2. Sehrli ertaklar: «Dev Safid», «Yalmog`iz», «Semurg», «Kenja botir», «Yoriltosh», «Gulikaxkax».
3. Maishiy ertaklar: «Ziyod botir», «Uch og`ayni botirlar», «Ozoda chexra», «Toxir va Zuxra», «Ayozi», «Avom folchi».

Maishiy ertaklarning asosiy qismini xajviy ertak tashkil qiladi:

O`tkir satira va xushchaqchak yumor: «Qozi bilan kambag`al», «Tuxmatchilar jazosi», «Ikki mulla», «Ikki o`jar», «Uch yolg`onda qirq yolg`on», «Boy bilan kal».

Ertak doston, qo`shiq, maqol, topishmoq kabi turlardan tubdan farq qiladi. Ma`lumki, o`zbek fol`klorshunos olimlarining ertak janriga bag`ishlangan ishlari mavjud.

Xayol asosida qurilgan badiiy uydirma ertak janriga xos belgi, lekin uning ichki turlaridagi xarakteri o`zgacha. Fantastik ertaklarda u hal qiluvchi rol o`ynasa, hayotiy-satirik ertaklarda esa, ikkinchi darajali o`rin tutadi. Shu jihatdan bo`lsa kerak, e. V. Pomerantseva ertaklar tasnifida ana shu birinchi belgidan kelib chiqish kerak ekanligini ta`kidlaydi. Biz ham o`zbek ertaklar janrini aniqlashda olimning mazkur fikrini nazarda tutamiz.

O`zbek xalq satirik va yumoristik ertaklari asosan prozaik hikoyalardir. Ba`zan ular she`riy parchalar ham uchrab, bular asarda personajlarning his-tuyg`ulari, o`zaro munosabatlarini ifodalovchi monolog va dialoglarni tashkil etadi. satirik va yumor hajviy ertaklarning asosiy belgilaridan biri bo`lib, ko`zga yaqqol tashlanib turadi. Bu belgi mehnatkash xalqning ziddiyatli hayotga nisbatan munosabatini izohlab, sinfiy qarama-qarshiliklar sababini fosh etadi. o`zbek xalq ijodi asarlari ichida satirik ertaklar hukmron tabaqa bilan qashshoq el orasida mavjud sinfiy muhitni ko`proq va ravshanroq tasvirlaydi. Shuning uchun ham bu xildagi ertaklar ma`lum ma`noda sinfiy ko`rashlar ifodasi ekan, ayni choqda shu kurashning ma`naviy quroli hamdir. V. G. Belinskiy o`z asarlarida: «Qaysiki satirik

ertaklar deyilishi mumkin bo'lgan ertaklar alohida diqqatga sazovor»¹, deb bejiz aytmagan.

Shuning uchun ham satirik va yumoristik ertaklar ertak-latifalar fantastik ertaklardan o'zining badiiy xususiyati, kelib chiqish o'rnini va zamoni, obrazlar sistemasi, syujet tuzilishi, g'oyaviy mazmuni, tiliga ko'ra tamoman farq qiladi.

O'zbek xalq ertaklarining bu turi ertakshunos olimlar tasnifida turlicha ifodalanib, ba'zilar hayotiy ertaklar², ba'zilar esa, ikki turi ertakni qo'shib hayotiy satirik ertaklar yoki hayotiy novellistik ertaklar deb o'rgandilar. Bizningcha, hayotiy-satirik ertaklarning har biri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lganligi uchun alohida o'rganishni talab etadi. Chunki o'zbek ertaklari orasida shunday hayotiy ertaklar mavjudki, ularning syujetida satiraning ko'z ilg'amas elementigina mavjud bo'lib, asosiy g'oya didaktika hisoblanadi. Masalan «Aka-ukalar»³, «Otam mehri»⁴ «Ko'r bilan shol» kabi ertaklarning syujet chizig'i va g'oyaviy mazmuni fikrimizning dalili bo'la oladi. Masalan, «Aka-ukalar» ertagida ikki aka-uka bug'doy ekishib, teng bo'lishib oladilar. Ukasi akasining oilali ekanligini o'ylab, kechasi akasiga bildirmay o'z bug'doyidan akasinikiga qo'shib qo'yadi. Akasi esa, ukasining kambag'alligini o'ylab, unga bildirmay o'z bug'doyidan ukasinikiga qo'shib qo'yadi. Mehribon aka-ukalar shundan keyin tinchiydilar. Ko'rinib turibdiki, bu ertakni biz chin ma'nosi bilan satirik yoki yumoristik ertak de bayta olmaymiz, aksincha, hayotiy-didaktik ertaklar deb yuritamiz. Shuning uchun ham bunday hayotiy ertaklarni satirik va yumoristik ertaklarga qo'shib yuborish emas, balki alohida o'rganish lozim.

¹ V.G. Belinskiy, Izbrannyye sochineniya, M., 1954, tom V. str. 553.

² S.F. Baranov, Russkoe narodnoye poeticheskoye tvorchestvo, M., Gospedizdat, 1962, str. 147.

³ «O'zbek xalq ertaklari», Toshkent, O'zdatnashr, 1955, 108-bet.

⁴ «Oltin olma» Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966, 54-bet.

O'zbek xalq satirik va yumoristik ertaklarning boshqa xalq ertaklari singari o'ziga xos xususiyati uning fosh etuvchi xarakteri va hajviy pafosga ega ekanligi bilan belgilanadi. Bu hajv xalq donishmandligining mahsuli bo'lib, optimistik ruh bilan sug'orilgandir.

Ijtimoiy hayotda hajvning roli katta. U inson zakovatini charxlab turuvchi kuchli omildir. Shuning uchun ham jamiyat o'rtasida satira «sezgir aqlga ega bo'lgan, keyinchalik amaliy hayotda namoyon bo'luvchi zabardast arbob»-degan edi. N.A. Dobrolyubov. Bunday zabardast kuchga ega bo'lgan ertaklar o'tmishda ezilgan ommaning ekspluatator sinf vakillariga qarshi ma'naviy kurash quroli bo'lgan bo'lsa, keyinchalik bu qurol mohiyat e'tibori bilan o'zgardi. Endi u davrimiz yoshlarini qo'rqmass, chaqqon, pokiza, vijdonli bo'lish ruhida tarbiyalaydi.

Ma'lumki, o'zbek fol'klorshunosligida satira bilan yumorni qorishtirib hajv nomi bilan ishlatish hollari uchraydi. Bu shubhasiz noaniqlika olib keladi. Shuning uchun hajvning kuchi, mazmuni va ishlatilish o'rniga qarab aniq chegarasini belgilab olishimiz kerak bo'ladi.

Ertaklardagi hajv mazmun e'tibori bilan turlikka ega bo'lib, asosan ikki holda ishlatilishi mumkin: biri jamiyat taraqqiyotining dushmanlariga qarshi, ikkinchisi, oddiy kishilar hayoti, xarakterida zamonaning zayli bilan paydo bo'lgan dangasalik, kaltafahmlik, ahmoqlik kabi kamchiliklarga nisbatan qaratiladi. Bu ikki turda salbiy belgini inkor etish xususiyati mavjud bo'lsa-da, birinchisida kuydirib tashlovchi o'tkir hajviy mazmun, ikkinchisida esa engil achinish ma'nosidagi hajv yoki yashirin istehzoli kulgi hukmron. Ko'rinib turibdiki, hajvning ikkinchi xili aslida achchiq hajv darajasiga eta olmay yumorning chegarasida to'xtaydi. Bu ikki xil ertak tom ma'nosi bilan boshqa-boshqa degan fikrni bildirmaydi. Satirik va yumoristik ertaklar janr e'tibori bilan bir-biridan oz miqdorda farq qiladi. shuning uchun ham yuqoridagi ertaklarni bir butunlikda satirik ertaklar janri fonida

o`rganamiz. O`rni kelib qolganda, taxminan ikki xil demoqchim bo`lgan ertaklarimizning bir-biridan farqi ustida fikr yuritib o`tamiz.

Ertaklar mazmunida satira va yumor mushtarak hodisa. Biroq ularning har bir asardagi daraja miqdori turlicha; bir ertakda satira asosiy o`rin tutib yumor element shaklida uchrashi mumkin yoki ikkinchisida yumor asar asosini tashkil etib, satira element darajasida kelishi mumkin. Buni biz «etti ahmoq», «Uch ko`knori», «O`g`ri» nomli ertaklarning mazmunida ko`rishimiz mumkin. «etti ahmoq», «Uch ko`knori» nomli yumoristik ertaklar mag`zida asosan insonga muhabbat g`oyasi hukumron bo`lib, ishtirok etuvchi personajlar yumoristik obrazlardir. Ertaklardagi engil kulgi shaxsiy kamchiliklar, dangasalik, ahmoqlik, giyohvandlik kabi sifatlarni fosh etadi. Biroq bu ertaklar zaminida satirik elementlarni ham aniqlash mumkin. Obrazlardagi mazkur sifatlari o`tmish zamon illatlari, feodalizm jamiyatda tarki dunyo qilishning Chirkin mevasi edi. Shuning uchun ham bu ertaklar zaminida mavjud achchiq kinoya-satira feodal hukumronligi muhitga qaratilgandir. Demak, yalqovlar, banglar yashagan muhit qoralanib, ayblanadi. Shunga qaramasdan, bu ertaklar asosini satira emas, yumor tashkil etadi. «O`g`ri» satirik ertak xarakterida bo`lib, hajv quroli bo`lgan achchiq, zaharxanda kulgi uning asosini tashkil etgan. Asarda inson huquqi, qadr-qimmat, insof, odob, axloq degan fazilatlarini mutlaqo tushunmaydigan kaltafahm, saltanat panohidagi haybarakallachi, xushomadgo`ylarga suyanib ish ko`ruvchi tirik murda-shoh xalq g`azabi-satirasiga nishon bo`ladi. Biroq, bu ertakda ham yumor elementlari uchraydi (o`g`rining tomdan ag`darilib uy egasining ustiga tushishi, yoki podshoh tomonidan osish uchun dor tagiga sudrab kelingan bo`yi past kishining ahvoli va boshqalar).

Ertaklar o`zining g`oyaviy mazmunini ifodalovchi aniq, kuchli satirik chizig`iga ega. Asarning asosiy personajlari-ruhoniylar, feodal hokimiyatning amaldorlari-vazirlar, qozilar, ulomalar, boylar bo`lib, ular ertakchi tomonidan

achchiq kulgi vositasida qamchilanadi, noqulay vaziyatda qoldirilib erga uriladi, mehnatkash xalq oldida sotqin, poraxo`r, ikki yuzlamchi, ochko`z, qonxo`r ekanliklari ochib tashlanadi. Ko`ramizki, salbiy muhit, hukumron sinf vakillarini hajv qilish, kulgi ostiga olish satirik ertaklarning o`ziga xos xususiyatidan kelib chiqadi. Demak, asosiy belgi hisoblangan satira asarda birinchidan, fosh etuvchi qurol vazifasini bajarsa, ikkinchidan emas mehnatkash ommaning haqiqat g`alabasi haqidagi orzu-umid, ishonchlarini ifodalaydi.

Xullas, yumoristik ertaklarda dangasalik, o`jarlik, yalqovlik, ezmalik, no`noqlimk, kaltafahmlik, savodsizlik kabi xislatlar engil kulgi ostiga olinsa, satirik ertaklarda sinfiy to`qnashuvda yuz bergan ochko`zlik, xasislik zulm, qonxo`rlik, bosqinchilik kabi amaldorlarga xos yaramas illatlar nafrat va istehzoli achchiq kulgi ostiga olinadi. Birinchi turda ko`proq yumor hamda didaktik g`oya hukumronlik qilsa (bunday ertaklarda ahmoqlar, dangasalar, bangilar tanqid qilinib, shu bilan birga inson tarbiyasida mehnatning roli yuqori qo`yiladi), ikkinchi turda jafokash xalqning ijtimoiy-sinfiy hujumkorlik ideyasi, didaktika hukumronlik qiladi.

Ko`rinib turganidek, maktabda ertaklarni yosh avlod ongiga ana shu sof hoida etkazish, dastavval, ertaklarning janriy o`ziga xosligini tushintirish, shu orqali yoshlarga ezgulik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, dangasalik va mehnatsevarlik kabi g`oyalar mohiyatini anglash, hayotda ular uchun kurashish lozimligini o`qtirish maqsadi turadi. Shu bois o`quvchilarga mana bunday savollar bilan murojaat qilish o`rinlidir:

- Hozirgi yoshlarimizda shunga o`xshash qanday fazilatlarni bilasiz? – degan masalada o`quvchilarni o`ylantirish.

- Maktab dasturidan mustahkam joy egallab, yillar davomida ertaklarning o`qitilib kelinishiga qanday sabablar bor, deb o`ylaysiz? – kabi masalalar doirasida o`quvchilarning fikrlarini bilish ham yaxshi samara beradi.

Ertaklar g'oyaviy mazmunida salbiy obrazlarga hal qiluvchi rol o'ynamay, balki xalq ideali-ijobiy qahramonlar ham muhim vazifani o'taydi. Ijobiy qahramon ma'naviy va sinfiy kurash fonida o'zining mardlik, chaqqonlik, aqllilik kabi ajoyib fazilatlarini ko'rsatadi. Buni biz donishmand, xushchaqchaq chol, dehqon, kambag'al yigit, odobli va donno ayol, komik qahramonlar-kal, afandi va boshqa obrazlar qiyofasida ko'ramiz.

Ba'zan mazkur personajlar tasvirida yumorko'zga tashlanadi. Bunday yumor fosh etish ma'nosida emas, balki qahramonning xushchaqchaq tabiati, optimistik ruhi va engilmas kuchga ega ekanligini tasdiqlaydi. Bu uning nutqida, hatti-harakatida, qiyofasida namoyon bo'ladi.

Demak, ikki qarama-qarshi obrazlarning printsipal to'qnashuvi satirik ertaklarga xos xususiyat bo'lib, bu to'qnashuv tom ma'nodagi ikki sinf vakillarining kurashuvidir. Qizig'i shundaki, to'qnashuv fantastik ertaklardagidek afsonaviy sharoitda mifologik obrazlar vositasida emas, balki oddiy, hayotiy joylarda yuz beradi. Kurash doimo donishmand, tajribakor xalq vakillarining g'alabasi bilan yakunlanadi.

O'zbek satirik ertaklari ichida syujeti mo'jizaviy voqea-hodisalar asosiga qurilgan shakl va mazmun e'tibori bilan fantastik ertaklarga yaqin turadigan ertaklar ham uchraydi. Bular «Xurmacha polvon», «Egri bilan to'g'ri», «Oltin tarvuz» va boshqa ertaklardir. Bunday turli xil ertaklarning qorishma holda kelishi bizningcha satirik ertaklar singari qadimiy ekanligidandir. Bunday ertaklarda satiraning darajasi kuchli bo'lib, komizm ertak mag'zini tashkil etadi. Shuning uchun ham qorishma ertaklar alohida tur sifatida o'rganishni talab etadi. Fantastik ertaklarda mo'jizaviy kuch va hodisalarga nisbatan xalq ishonchi sezilib turadi. Satirik ertaklarda esa bu ishonch shaklan mavjud bo'lsa-da, mazmunan inkor etiladi.

«Kal» ertagida qahramonning «Shu qo'ylarni daryo tagidan hayodab chiqardim» degan mu'jizasiga ishongan zolim shoh bilan vazir qolgan

qo'yilarni zodd ikki personajning mo'jizaga nisbatan ikki xil munosabati aniq sezilib turibdi. Ko'rinadiki, satirik ertaklardagi mo'jiza ijobiy qahramon tomonidan o'ylab topilgan tuzoq bo'lib, zolimni qo'lgan tushirish, undan o'ch olish maqsadida ishlatiladi.

Demak, ertaklarga mo'jizaga ishonchning turlicha shakli o'z navbatida mazkur ertaklarning fantastik ertaklardan farqini ifodalaydi. Fantastik ertaklarda qahramon mo'jiza («qiriq gazli qilich» va boshqalar) yordamida dahshatli kuch va hodisalarni engsa, satirik ertaklarda qahramon dushmani o'z aql-idroki, tadbirkorligi bilan engadi, chunki hiylakor dushman bilan kurashish chaqqonlikni, fahm-farosatni, dnolikni talab etadi.

Ertaklarda an'anaviy uchlik-takror voqealar uchraydi. Uchlikning har biri xayoliy ertaklardagidek to'liq bayon qilingan bo'lishi mumkin yoki uchlikning biri qisqartirilgan shaklda keladi. Ko'pincha uchlikning uchinchi yoki ikkinchi va uchinchi qisqartiriladi. «Uch ko'knori», «Tuhmatchilar jazosi» kabi satirik va yumoristik ertaklarning uchlik bayoni to'liq berilgan. «Uch og'a ini botirlar», «Garang» ertaklarida esa uchlik bayoni qisqa, ya'ni uchdan birigina to'liq hikoya qilinadi. «Garang» ertagida uch kishining qozi oldidagi uch arzidan biri to'liq, ya'ni ikki kishi to'liq fikr bayon qilsa, eshak mingan kishi qisqa gapiradi. Yoki «Haq hukm» ertagidagi to'rt da'vogarning uchtasi qozi oldida o'z da'vosini aytsa, to'rtinchisi aytmaydi. «Uch og'a ini botirlar» ertagida bir kechani uchga bo'ladilar. Birinchi bo'lak bayoni, beriladi, ya'ni voqea ro'y beradi. Kechaning ikkinchi-uchinchi bo'laklari ta'riflanmaydi. Demak, satirik va yumoristik ertaklarda an'anaviy uchlik o'zining qisqa bayoni bilan fantastik ertaklardan farq qiladi. bulardan tashqarii ertakshunos olimlar fikriga asoslangan horlda quyidagi belgilar o'zbek satirik va yumoristik ertaklarining xususiyatlarini ifodalashi mumkin deb bilamiz.

Xayoliy ertaklarga nisbatan satirik ertaklar mazmunida antagonistik kuchlar kurashi keskin ifodalanib, yuzaga kelgan konflikt ijtimoiy mazmunni kasb etgan. Bu konflikt mazmun e'tibori bilan hayotiy konflikt, ya'ni feodal bilan dehqon, boy bilan kambag'al, shoh bilan kosiblar o'rtasidagi antagonistik to'qnashuvdir.

Ma'lumki, ertaklarning syujet to'qimasiga singdirilgan satira, yumor salbiy va ijobiy qahramonlar xarakterini aniqlovchi badiiy vositadir. Shuning uchun ham kulgi qaratilgan dushmanning sotsiol kategoriyasi salbiy obrazlar-podshohlar, vazirlar, boylar, qozilar, din ahllari bo'lib, ular xarakteri-mubolag'a shaklida tasvirlanadi.

Satirik ertaklar hajmi qisqa, lekin keng ma'noga ega bo'lib, tasodiviy komik situatsiyalarga boy bo'lgan sarguzasht xarakteriga ega. Demak, bu xildagi ertaklar syujeti kichik va o'rta bo'lib, ham jonli, ham emotsional ta'sirchan, maqsadni lo'nda ifodalashi bilan boshqa turdagi ertaklardan ajralib turadi.

Satirik ertak voqealari uning hayotiyligi bilan ajralib turadi. Fantastik ertaklarning syujet to'qimasida hayotiy voqea va hodisalarning elementlarigina voqea va hodisalardan tashkil topgan; ya'ni mehnat sharoitlari, mehnat qurollari, mehnat qilish o'rni va zamoni, kiyimlar va boshqalar tasvirlanadi.

Ma'lumki, satirik ertaklar syujeti o'ziga xos boshlama, tugun, konflikt, kul'minatsion nuqta, echim va tugallamaga egadir.

An'anaviy boshlama-mazmunan hayotiy. «Zomin yurtida bir boy bor ekan, u boyning xizmatkori bo'lar ekan». Ba'zan tarditsion boshlama fantastik ertaklardan o'tgan bo'lib, noaniqlikni bildirsa ham, undagi voqea afsonaviy shahar va joylarda bo'lmay, balki aniq va bor bo'lgan shahar va qishloqda sodir bo'ladi: «Bir bor ekan, bir yo'q ekan, Qo'qonda yangi qishloq bilan Toshkentlik guzar o'rtasida Tojik qishloq degan joy bor ekan».

Fantastik ertak syujeti an'anviy boshlama bilan boshlansa, ko'pchilik satirik ertaklar syujeti esa boshlamasiz to'g'ridan-to'g'ri boshlanadi, onda-sonda oz bo'lsa-da, qisqa boshlama uchrab turadi. Bu hol turli xildagi ertaklarning o'zaro munosabatidan kelib chiqqan. Fantastik ertaklarga xos an'anviy boshlama satirik ertaklarga formal holda ko'chirilgan deb bo'lmaydi. Chunki, uning ertak kompozitsiyasida o'zgacha o'rni mavjud. Ayniqsa, mazkur badiiy vosita tinglovchi e'tiborini ertak mazmuniga olib kirib jalb qilish, ta'sirchanlikni oshirish vazifasini bajaradi. Bu xildagi an'anaviy boshlama hayotiy voqea va hodisalar asosida vujudga kelgan. Ertakchi boshlamaning o'zidayoq hikoya davomida qanday voqea yuz berishi mumkinligini ma'lum qiladi. «Boltoboy akasi Teshaboyni ochlikdan o'ldirgan zolim boydan o'ch olish uchun boyning hovlisiga qarab to'g'ri yo'l olibdi». Yoki «Saxiy bilan Baxil» eragining «Kunlardan bir kun Baxil bilan Saxiy sahroda yurgan ekanlar» degan birgina sodda gapdan tuzilgan boshlamasida ikki xil obrazga mansub ayricha sifatlar ayon bo'ladi. O'z-o'zidan ma'lumki, bu ertak mazmuniga didaktik g'oya asos qilib olingan. Satirik va yumoristik ertaklarda boshlama bir-ikki sodda gapdan tashkil topgan bo'ladi. Ba'zi o'rinda satirik ertaklar boshlamasi hayotiy shtrixlar vositasida voqealarning sodir bo'ladigan o'rni-geografik joy nomini ham ko'rsatgan bo'lishi mumkin: ayni choqda bu boshlama fantastik ertak formulasini qabul qilgan bo'ladi. «Bor ekanu yo`q ekan, och ekan, to`q ekan, qadim zamonda Bog`dod tomonda Zunnun nomli podsho yashar ekan».

Ko'ramizki, an'naviy tarzda voqea, u yoki bu qahramonning ijtimoiy ahvoli aniq va lo'nda bayon etiladi. Bu xildagi ixcham ifoda tinglovchi qalbida «ertakdagi voqea haqiqatga o'xshaydi» degan tushunchani hosil qiladi: «Bir bor ekan bir yo`q ekan, qadim zamonda bir kambag'al odam bor ekan. Peshonasida bir uyi bo'lib, u ham qulab tushgan ekan».

Ba`zan ertaklarning boshlama qismida realistik elementlar tarixiy shaxslar nomi bilan almashinib keladi. Bu nomlar tinglovchida ertakning hayotiy ekanligi haqidagi ishonsni mustahkamlaydi. «Burungi zamonda Husayn Bayqaro degan podsho yashagan ekan».

Ba`zan ertaklarda boshlama an`naviy shaklini yo`qotgan holda, to`satdan bo`layotgan voqeani tasvirlaydi. «O`rtatepa begi xalqdan oq uylikka qora cherik odam so`rab qoldi». Yoki: «Bir avom bilan mulla ikki urishib turgan edi». Bu xildagi boshlama ertakda qatnashuvchi personajlar miqdorini aniq ko`rsatadi. Chunki satirik ertaklarda voqealar ko`proq ikki yoki uch kishi o`rtasida bo`lib o`tadi. Shuning uchun ham boshlama bayonida personajlarning kim ekanligi, kasb, amal, laqablari ma`lum bo`ladi.

Ko`ramizki ertak boshlamasida ma`lum bo`lgan u yoki bu mazmun xarakterli tugunlar, voqealar rivojini ta`minlab keskin to`qnashuvlar sari etaklaydi.

Ertaklar o`ziga xos belgili tugallanmasi bilan ajralib turadi. Fantastik ertaklarda tugallanma an`naviy shaklda «Qirq kecha-kunduz to`y tomosha qilib, Bektemir botir bilan Oqbilak oyimni bir-biriga qo`shdi. Shu bilan bular murod-maqsadiga etishdi», -singari qo`llaniladi. Ertaklarda tugallanma syujet chizig`ini tashkil etgan voqealar sintezidan kelib chiqqan xulosa bo`lib, ko`proq didaktik g`oya yoki ijtimoiy mazmunni ifodalagan holda keladi. Shunday qilib, To`g`riboy to`g`riligidan maqsadiga etibdi. Egriboy esa, egriligidan jazosini tortibdi. «Oqibatsiz jo`ralar esa, o`z qilmishlariga afsuslanib uyalib qolibdilar», «Podsho amri vojib», -deb o`g`rini dordan bo`shatib, o`rniga podshohning o`zini osgan ekanlar», «Podshoning o`rniga cholning o`zi podsho bo`lib qolibdi».

Ba`zan tugallama u yoki bu personajning o`zida mavjud bo`lgan salbiy xususiyatdan voz kechganligini izohlaydi. «O`g`ri esa o`g`riligini tashlab, xizmat kilibdi, murod-maqsadiga etibdi». «O`shandan beri Ahmad savdogor

bo`lish niyatidan qaytibdi», «Shunday qilib, odamlarni aldab ko`rib yurgan ko`salar jazolarini tortib, qilgan ishlariga pushaymon qilib, tavba qilibdilar».

Ko`pchilik tugallama salbiy xarakter, xususiyat oxir oqibatda halokatga olib kelishi mumkin degan g`oyani izohlaydi: «Dangasalar o`zlari yumalab, daryoga tushib cho`kib ketibdilar», «O`jar daryoning tagiga cho`kib ketayotganda ham, ikki barmog`ini qaychi qilib, cho`kib ketibdi», «O`zini olovdan qutqarmoqchi bo`libdi, lekin bo`lmayapti, yonib ketibdi».

Ertaklar tugallamasi turli xil shakl va mazmunga ega bo`lgan maqol, matal, afristik ibora, oborotlardan tashkil topgan bo`ladi. Bu xildagi komponentlar ertak fabulasidan ajralgan holda kelmay, balki g`oyaviy mazmunning umumlashgan formasi shaklida namoyon bo`ladi. «U haligi cholning bunchalik o`tkir aqliga qoyil qolibdi, «Qariya bilganini pari bilmas debdi», «Yoqma pishirasan, qazma tushirasan» deganlarining ma`nosi ham shu ekan».

Demak, u yoki bu mazmunli tugallama voqealar zanjirida jam bo`lgan mazmundan xulosa yoki qissadan-hissa sifatida ifodalangan bo`ladi. Mazkur belgi-xususiyatlar turli xil ko`rinishda ifodalansa ham, satirik ertaklar syujetiga mos tushganligi, o`ziga xos aniq sifatlari bilan ajralib turadi.

Yuqorida ertaklarning mazmun-mohiyatini ta`riflashdan maqsad shuki, ertak janri ustida ishlayotgan har qanday o`qituvchi, o`z maqsadini amalga oshirish uchun avvalo, o`z oldiga qo`yiladigan bosh maqsad va vazifalarni oldindan bilishi zarur. Chunki, bu vazifalar o`qituvchiga ham, o`quvchiga ham birdek taaluqli bo`lishi lozim. Yana shuni ham ta`kidlash kerakki, o`qituvchi avvalgidek, etakchi figura, ya`ni darsda asosiy ob`ekt emas, chunki asosiysi, bu fan va o`quvchilar bo`lmog`i darkor. Mavzuning maqsadi aniq belgilanmasdan, o`quvchilar o`lari etakchiga, ya`ni, faol tinglovchidan, faol tahlil qiluvchiga aylanmay turib, dars bosh maqsadiga erisholmaydi. Buni hozirgi davr pedagogikasi ham ko`rsatib turibdi. Demak, o`qituvchi ham,

o`quvchi ham inovator bo`lishi–yangilikni topibgina qolmasdan, uni amalga oshiruvchi, hayotga tatbiq qiluvchi bulmog`i kerak, degan maqsad shu mulohazalardan kelib chiqadi. Ushbu vazifalar nimalardan iborat, ular ertak janrini tushintirishda qanday amalga oshadi, degan masala ham nafaqat ko`p o`ylanishni, balki ko`p izlanishni ham talab qiladi. Binobarin, asosiy vazifalar qo`yidagilar:

- O`zbek xalq ertaklarining janr xususiyatlarini tushintirish;
- Ertaklarning mavzui, g`oyaviy yo`nalishini tushintiish;
- Ertak mazmunini to`la tushinib olishga intilish;
- Ertaklarning boshqa janrlardan ayricha tomonlarini ongli ravishda bilish;
- Ertaklarning kompozitsion qurilishini anglash;

Ertak janrini o`qitishga maktab dasturiga amal qilmay bo`lmaydi. Hozirgi dasturda ertaklarga uch soat ajratish nazarda tutilgan. Demak, birinchi navbatda manna shu vaqtni to`g`ri tiaqsimlash zarur. Bizning fikrimizcha, avvalgi darsni ertaklarning mavzusi va g`oyasini o`tishga bag`ishlagan durust bo`lar edi. Chunki, mavzu va g`oyani o`tishda ertakning matni, ya`ni syujeti bilan mazmuni, ertaklarning o`rganilishi va to`planishi, nashr etilishi, variantlari bo`yicha ham ma`lomotlar berib ketishga imkon bo`lib, bunday dars ichiga ko`p narsani qamrab olishi mumkin. Demak, avvalgi darsga ham o`qituvchi jiddiy tayyorgarlik ko`rishi lozim.

II-BOB

ERTAKLARDA OBRAZLAR TURKUMINI O`RGATISH YO`LLARI

Ertaklardagi obrazlar maktab o`quvchilariga tushunarli bo`lishlari uchun, ularni ikki toifaga ajratib tushintirish qadimdan eklayotgan an`anaviy usul. Shu bilan bir qatorda, masalan, satirik ertaklar bilan yumoristik ertaklarni olib qaraydigan bo`lsak, ularning orasida muayyan farqlar mavjud.

Obrazlarni qarshi qo`yish shaklida ifoda etish asar mazmunida mavjud bo`lgan antagonizmdan boshlanishidanoq ana shu badiiy usul asosida obrazlar talqini yuz bera boshlaydi. Bu to`qshanuv ikki sinf vakillarining kurashuvidir. Hikoyada kurashning printsiplal xarakterga ega bo`lishi esa, satirik ertaklarning muhim tomonini belgilaydi.

Obrazlar to`qnashuvida yuzaga kelgan voqealar rivojining u yoki bu darajasi fantastik ertaklardan farqlanib turadi. Chunki satirik ertaklarda obraz, voqealar harkati juda tez, shiddat bilan boshlanib taraqqiyot yo`liga kiradi. Ertak asosini tashkil etgan u yoki bu g`oya, obrazlar sifati ana shu protsessda ma`lum bo`ladi, ko`rsatkich urug`lar vositasida oydinlashadi. Ayniqsa, shoh bilan xalq to`qshanuvi asos bo`lgan «Tentak podshoh» ertakgining syujet chizig`ida mavjud tezkor rivojlanish, situatsiyalarda hukumronning tentaknamo harkati, farosatsizligi bo`rta borib yaxlitlangan sari, oddiy xalq ongida hukm surgan adolatsiz shoh va ularga qarshi qahr-g`azab tuyg`usi kuchliroq beshafqat bo`la boradi, ayni chog`da shohlik tuzumi qoralanadi. «Ikki o`jar»¹ nomli yumoristik ertak syujetining voqealari rivojida esa qaysarlik kabi salbiy xususiyat tanqid qilinadi. Bu hodisa syujetning tugallama qismida yana ham oydinlashadi. Demak, ertaklarda to`qnashuv sababchi bo`lgan voqealarning asosiy g`oya atrofida keskin va tez rivojlanish hodisasi obrazlar belgisi-o`ziga xos tomonlarini qabartib ifodalashda ahamiyatlidir.

¹ «Xorazm ertaklari», 1961, 183-bet.

Ertaklar kompozitsiyasi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, asosan qisqa, biroq chuqur va keng mazmunli bir yoki uch-to'rt epizoddan tashkil topadi. Mavjud epizodlarda mavjud harakat birligi hajv mazmunli voqealar rivojini yuzaga keltirib, aniq maqsad sari yo'naltiradi. Voqealar rivojiga turtki bergan harakat birligi keyinchalik konflikt rivojiga kuch berib uni kesinlashtiradi. Harakat masalasi hal bo'lguncha kulguli situatsiya, dramatik holat qarshilantirishning xulosasi. Ertakchi o'zi oldindan mo'ljallangan fosh etuvchi kulguli vaziyatni yoki sharoitni kutilganda paydo qiladi.

Ertaklarda an'ana hisoblangan kutilmagan holat ikki xil formada ko'zga tashlanadi. Birinchisi, dialogning xulosasi shaklida namoyon bo'lsa, ikkinchisi qarshi harakatning natijasi sifatida yuzaga keladi. Shunga qaramasdan an'ananing ikki xil ko'rinishi xizmat birligiga ega. U ham bo'lsa, tinglovchi qalbida hajviy kulgi qo'zg'ash hamda qarshi qo'yilgan personajlar qiyofasini aniq chiziqlarda ochib berishdan iboratdir. «Qozi bilan kambag'al», «Ikki mulla», «Ikki o'jar» ertaklarida mazkur an'ananing birinchi formasi qo'llansa, «Tuhmatchilar jazosi», «Xasis boy va uning o'g'illari», «Novcha boy va qozi», «Aldar ko'sa», «Xasis boy bilan Abduraxmon o'g'ri» kabi ertaklarda ikkinchi xili qo'llanadi.

«Qozi bilan kambag'al» ertagidagi «kal» laqabli kambag'alni askiya va so'z o'yinlarida eng olmagani «eshak» laqabli qozi o'z mansabida foydalanib, uni shariat bo'yrasiga o'tqazadi. Unga «inno a'tayno kalkavsar fasalli lirabbika vonhar» surasini o'qitib, «kalkavsar» so'zlarini qochirim qilib, raqibidan o'ch olmoqchi bo'ladi. Biroq kambag'al sura oxiridagi «vonhar» so'zidagi «r»ga urg'u bergan holda «harr-harr» de bo'qiganda qozining o'zi mulzam bo'lib qoladi. Dono xizmatkor «xar-xar» so'ziga urg'u ishlatganda paydo bo'lgan favqulotdda kulguli vaziyat qozi qiyofasida o'zbilarmonlik, qo'pol takabburlikni, tadbirkor kambag'alda esa, mehnatkash ahliga xos hozirjavob, donolikni qabartib chizadi. Ayni zamonda bu vaziyat

g`azabli xalq kulgichining portlovchi payti hisoblanadi. Yoki «Ikki mulla» ertagida ovchi otib kelayotgan g`ozni mulalar emoqchi bo`lib pishiradilar va «Kim yaxshi tush ko`rsa o`sha eydi» degan shart qo`yib uxlaydilar. G`ozni ovchining o`zi eb qo`yadi. Uyqudan turgan bir mulla «Osmonda uchib borayotgani»ni, ikkinchisi esa, «dengizda suzib borayotganini» aytganda, ovchi, sen osmonga uchib ketding, sen dengizga suzib ketding, ikki o`rtada g`oz Zoe bo`lar deb mann eb qo`ydim,-deydi. Bu ertakda ovchining so`nggi javobi-komik holat, asosan g`alaba tantanasini tasdiqlasa, ayni choqda mullalar qiyofasida mavjud ta`magirlik, ayyorlikni fosh etib, istehzoli, achchiq kulgini yuzaga chiqaradi. «O`g`ri» ertagida favqulotda vaziyat shohning dorga osilishi hukumdorning o`ta mansabparast, xasis, kaltafahimlik kabi xususiyatlarini chizadi, «Ikki o`jar»da o`jarning suvga cho`kayotganda ham barmoqlarini qaychi qilib cho`kish vaziyati o`jarlikni o`ta mubolag`a shaklida bo`rttirib belgilaydi.

Demak, u yoki bu asardagi obrazlar to`qshanuvda yuzaga kelgan voqealarning harakat birligi va uning rivojlanish protsessii shartli satirik, yumoristik personajlar mazmunini bo`rttirib ko`rsatadi, ma`lum bo`lgan salbiy belgilarni zaharxanda ko`lgi vositasida fosh etib, estetik idealni tasdiqlaydi. Situatsiyalarda qo`llangan an`anaviy kutilmagan holat qarshi harkatlar xulosasi shaklida namoyon bo`ladi. «Aldar ko`sa» ertagida «ahmoq qilingan boy devorni itarganicha qotib turadi». Bir tillani beraolmagan Abdurahmon o`g`ri o`zini o`likka solib yotadi, xasisi boy esa, uni qaynoq suv bilan yuvadi. Bu xildagi situatsiyalarda salbiy personajlar tinglovchi ro`parasida komik holatda paydo bo`ladi. Shuning uchun ham satirik ertaklardagi fantaziya, situatsiyalar, obrazlar tasviri haqiqatdan yiroq bo`lib ko`rinsa-da, aslida real hayot bilan bog`liq holda ifodalanadi. G`alati tuyulgan bunday situatsiyalar satirik ertaklarda tipik bir holdir.

Komik situatsiya ertaklarda bir yoki bir nechta bo'lishi mumkin. Qator kelgan komik situatsiyalar asar kompozitsiyasining asosini tashkil etib, g'alati tuyulgan voqea yoki hodisani quyuqlashtiradi, o'tkirlashtirib grotexs darajasiga olib chiqadi. Bu xildagi qator kelgan holatlar qahramon qiyofasini to'liq ochadi.

«Tuhmatchilar jazosi»¹ ertagi uchta komik vaziyatdan tashkil topgan. Birinchisi situatsiya harakat komizmining bo'rttirilgan formasini tashkil etadi. «Xotin qassobning oldiga borib, menga ikki qadoq go'sht bering,- debdi-da yuzini ochib qassobga kulib qarabdi. Qassob shoshib qolib, shoshganidan qo'lini ham kesib olibdi».

Ikkinchi vaziyat holat komizmining bo'rttirilgan formasini tashkil etadi. Eri boltanii olib «mana bu to'nka yaxshi o'tin bo'ladi, hozir yorib tashlayman», -debdi-da qassob to'nka bo'lib turgan tomonga qarab yuribdi. Qassob qarasa, ish chatoq, darov ustidagi qopni Irg'itib tashlab, dodlaganicha devordan oshib qochibdi».

Uchinchi vaziyat harakat va holat komizmining bo'rttirilgan formasini tashkil etadi. «Bo'lmasa men karnay-chi», - deb qassob chuqurga tushibdi, haligi Xotin burnini shartta kesib olibdi. Bir ozdang so'ng, u voy-voylab yuzini ushlab chiqibdi. «Ha, nima bo'ldi?»-deb so'rabdi sheriklari. «E, qo'yavering, u erda pishirilayotgan noz-ne'matlarning hidi burnimni yora yozdi» debdi. Bunday hajv mazmunli situatsiyalarni tashkil etgan epizodlar dramatik holatni vujudga keltirib, dinamik harakatni tezlashtiradi, uni keskin to'qshuvga olib chiqadi. Bu ertakdagi birinchi va uchinchi qo'shimchayordamchi situatsiyalar asosiy situatsiyani to'ldirib, mukammallashtiradi. Ertakchi yuqoridagi uch situatsiyada har bir personaj xarakterining u yoki bu sifatlarini aniqlab, shartli, umumlashma obrazlar yaratadi. Masalan, mazkur situatsiyalar chizig'ida qassob maishatboz, qo'rqq, pastkash kabi belgilari

¹ «Xorazm ertaklari», 1961, 16-bet.

bilan namoyon bo`ladi. Shu bilan birga har bir komik holatlar davomida ertakchi u yoki bu obrazga nisbatan o`z munosabatini ham bildiradi. Mazkur asar ertakchining oila vafodorligi haqidagi orzusi bilan bog`langan. «Kal» ertagi esa, birgina situatsiya hamda bo`rttirilgan holat komizmi asosiga qurilgan asarda qirchang`i ot olib qochgan kal bir daraxtni ushlab qolaman desa, u ildizi bilan sug`irilib ketadi. Kalning qo`lda katta daraxt bilan kelayotganini ko`rgan bosqinchi dushman o`takasi yorilib qochadi. Bunday groteskli situatsiya eng avvalo ertakchining ozodlik haqidagi orzusi bilan chambarchas tutashgandir.

Demak, kutilmagan holat, asosan, obrazlar xarakterida mavjud alohitda tomonni aniq yoritadi. Mohir ertakchi hikoya qilgan turli-tuman voqea, vaziyat, holat, qahramonlar harkati o`zining hayotiyligi bilan ajralib turadi, ya`ni personajlar oddiy kishilar bo`lib, hayotiy sharoitda harakat qiladilar. Bundan tashqarii, ulardagi umumiy sotsiol yo`nalish bu turdagi ertaklarning realistik asar ekanligini tasdiqlab turadi.

Ba`zan ertaklarda personajlar portretining to`liq tasviri ko`zga tashlanadi. Ma`lumki, ijobiy qahramonlar «kal», kambag`al dehqon, dono ayollar inson ongi, orzu-umid, tuyg`ularida kamol topgan umumlashma obrazlardandir. Shuning uchun ham bu xildagi obrazlar talqinida portret tasviri bir xillikka ega, u to`liq ifodalanmaky kichik detal`, shtrixlarda beriladi. Ya`ni, bir necha ertaklardagi «kal»lar bir xil nutq va ko`rinishda tasvirlanadi. Biroq salbiy qahramonlarga xos umumlashma obrazning portreti to`liq ifodalanadi. Bu, hajviy ertakchining salbiy obrazlar tasvirida portret komizmidan foydalanib, ta`sirchanlikni oshirish niyatida kelib chiqadi. Ertakchi qahramon portretini uning ichki dunyosiga mos holda chizadi. Bu esa, o`z navbatida shu personajga xos xaraterni ifodalovchi belgilarni aniqlashga yordam beradi. Ayniqsa, boy, qozi jodugar kampir, qaroqchilar portretida ekspluattor sinfining vakillariga xos yozuv niyat-xarakter va xususiyatlar o`z ifodasini

topgan. «O`tirganlarning burunlari tanqaygan, ko`zlari chaqchaygan, ko`ngillari qora, yuzlari ola, o`ylaganlari yomonlik». Ko`rinib turibdiki, ertakchi tomonidan tuzilgan bu xildagi portret salbiy personajlar qiyofasida yovuzlik, qonxurlikning izlarini to`lalagicha ochadi. Yoki, jodugar kampirning komik portreti shunday chiziladi; «Lablari shaftoli qoqideek burishgan, yuzlari yog`lanmagan aybaki tanovardek tirishgan, eski kovushday turni enchaday iyagi bilan urishgan, quloqlari supraday, ko`zlari o`yilgan go`rday, kurkaday, oyoqlari moxovlarning shotisiday, panjalari beshlikday, etagini turmushlagan, orqasiga bir mushtgul ot bog`laydigan qoziq ham yo`q, o`t og`iz, o`roq tishli, beli kamalak, yuzi sumalak, boshi guvalak, betiga bir qop makkajo`xorini sepib yuborsang, biror donasi ham erga tushmaydigan, arii uyaday cho`tir, g`ura qovoq, betlari xom oshqovoq xotinni olib berdilar». Boy qiyofasi shunday namoyon bo`ladi: «Xuddi, boqma to`ng`izdek, xo`ppa semiz, egani bara kabobu, ichgani qimiz, yurishlari g`ozday, rangi xo`rozday, qorni qovoqday, betlari tovoqday, saqolmo`ylabi burgan supurgi, har bir so`zi kuydirgi, bitko`z, xamak burun boy lapanglab chiqib keldi»<sup>1</sup>. Bunday portretlar tasviri fol`klor asarlariga xos individual xarakterni yoritishda yordam berib, asosiy konfliktni mantiqan tasdiqlashda katta rol` o`ynaydi.

Ertakchi salbiy personajlar portretini ko`proq qulay, fosh etuvchi sharoitda berishga harakat qiladi. chunki qulay sharoitda chizilgan portret bo`rttirilgan komik holatni vujudga keltirishda muhim ahamiyatni kasb etadi. «Xotin baqqolni bekshikka belab, borib eshikni ochibdi... «Qani men bir ko`raychi qo`shnimizning bolasi qanaqa gavorani ochib qarasa, ketmon saqol Sulton baqqol ko`zlarini shipillatib yotgan emish»².

¹ O`sha kitob, 86 bet.

² Xorazm ertaklari. 1961, 16-bet.

Ko`pchilik ertaklarda personaj qiyofasining ba`zi bir detal, shtrixlarigina beriladi: «Bu gapni eshitgan domla oyog`ining cho`loq bo`lishiga qaramasdan, tezda bolaning uyiga etib kelibdi...Uyda hech kim yo`qligidan foydalanib domla xotinining qo`lidan ushlab o`ziga tomon tortibdi. Issiq choy to`kilib, domlanning qo`li kuyibdi»¹. «U, Boltoboy xizmat so`rab kelgan bo`lsa kerak, deb o`ylab sevinchidan o`ziga o`zi so`ylab, nihoyat, ayyor ko`zlari bilan qarab, pahmoq soqolini tarab tilyog`lamalikka kirishibdi»². Bunday shtrixlar (cho`loq, pahmoq soqol, ayyor ko`z) u yoki bu personaj xarakterining domlanning maishiy buzuv, o`larmon ekanligiga bir shtrix (cho`loq) bilan ishora qilsa keyingi (ayyor ko`z, pahmoq, soqol, tilyog`lama nutq)da esa boyni ayyor, pismiqligi fosh qilinadi.

Ba`zan portret ruhiy holat bilan birgalikda ifodalanadi. Bunda badiiy o`xshatishlardan unumli foydalaniladi.

«Shoh o`q egan to`ng`izday, loyga botgan eshakdek boshini solib», «Bu bozor shu sarsonchilik bilan bir pul ham tushurolmay, kundagidek qozining labi gezarib payshanbidan qaytgan g`unojinday bo`lib uyiga qaytdi». «Malika ko`rsa, qo`lidan xanjar obdor, quturgan itning ko`zidek, ko`ziga qon to`lgan» va hakoza.

Demak, ertakchi tomonidan qo`llanilgan u yoki bu portret tasviri tinglovchi qalbida achchiq, zaharxanda kulgi qo`zg`ab g`oyaviy mazmunni to`ldirishga yordam beradi.

Detal` badiiy adabiyotda, jumladan, ertaklarda ko`p qo`llaniladigan fosh etuvchi badiiy vositadir.

Ertakchi asarning ekspozitsiya qismidayoq personajga umumiy xarakteristika berar ekan, uni voqea davomida ishlatilgan detal vositasida

¹ Oltin olma. 1966, 324-bet.

tasdiqlaydi. «Xasis boy va uning o`g`illari» ertagining kirish qismidagi xarakter talqini va uni isbotlovchi detal` fikrimizning isboti bo`la oladi.

«Bir xasis boy yashagan ekan, uning uch o`g`li bo`lib, ular ham o`z otlaridek xasis ekanlar». Xasislik belgisi boy va uning o`g`illariga nisbatan ertakchining bergan dastlabki sifati bo`lib, bu sifat voqealar taraqqiyotida amalda haqiqatga aylanadi.

Uch o`g`il oltin g`isht topib oladilar. Buni uchga bo`lish kerak, lekin uchala aka-uka ham oltinning hammasini o`zi olishni o`ylaydi. Ikki aka ukani ovqatga yuborib, maslahat qilishadi va uni o`ldirmoqchi bo`ladilar.

«Agar oltinni uchga bo`lib ukamizga bersak o`zimizga juda oz tegadi. Yaxshisi oltinni ikkiga bo`lib olib, ukamiz kelishi bilan uni o`ldiraylik», - deyishadi. Ukasi ovqat olib kelayotganda: «Agar oltinni uch kishiga bo`lsak, har birimizga ozginadan tegadi. Undan ko`ra oltinni men o`zim butunicha olaman», -deb ovqatga zahar solib keladi. Akalari ukasini bo`g`ib o`ldiradilar. O`zlari esa ovqatni ichib o`ladilar. Bu ertakdagi «oltin g`isht» detal` aka-ukalar o`rtasida konfliktni keskinlashtirib, kul`minatsion nuqtaga olib chiqadi. Ko`ramizki, detal` obrazlararo noma`lum, o`ziga xos ba`zi bir individual belgining yuz berishiga sababchi bo`ladi. «Eshonim deb eshigimdan ayrildim» ertagidagi eshondagi xarakter «qo`y» detali orqali yuzaga chiqadi. Eshon bir uy egasiga «Xotiningni so`ziga kirmagin» deb tayinlaydi. Shunda uy egasi bolasi tuzalgani uchun eshonga bir qo`y ataganini aytib: «Xotinim semiz qo`yni bering, deyapti. Siz xotining bilan maslahat qilmagan devdingiz», -desa eshon: «Xotinning gapiga hamma vaqt kirmaganda ham, goh-goh kirsa bo`ladi», -deb maslahat beradi. Epizoddagi «qo`y» detali eshon qalbidagi yashirin, biroq so`zi va xatti-harakatidan ko`rinib qolgan dog`uli, ochko`zlikni ayon qiladi. ayni choqda mazkur sifatlardan tashqarii, noma`lumdek sezilgan soxtalik oydinlashadi. Demak, eshon xarakterida sezilgan tovlamachilik yordamchi, soxtalik esa uning

asosiy sifati. Bu «soxtalik-chinakam kulgining yagona manbai»¹. U yoki bu obrazda asosiy va noma'lum bo'lib ko'ringan sifatlar voqea rivojida to'lishib, chuqurlashib detal vositasida oydinlashadi, paydo bo'lgan qo'shimcha belgilari uni to'laqonli obraz darajasigacha olib chiqishga yordam beradi.

Ertakchi asosiy sifat tasvirida ko'proq bo'rttirish-mubolag'adan foydalanadi. Bunday bo'rttirish asosli va hayotiydir. Shuning uchun ham har bir ertakchi ekspluatyor sinfining vakiliga xos belgi-zulm, soxtalik, xasislikni bo'rttiradi. Chunki o'tmish hayot tarixidan ma'lumki, pul, boylik, taxt uchun o'g'il otani, aka-ukani yo'q qilishgacha borib etgan. Bunday tarixiy haqiqat xasislikni bo'rttirishga asos bo'la oladi. Bo'rttirish o'z navbatida ana shu tarixiy haqiqatni yana ham ravshanroq ochadi. Mazkur priyomning maqsadi asosan tinglovchi diqqatini salbiy belgiga jalb etib hajviy kulgi-o'tli g'azab tuyg'usini qo'zg'atishdan iborat.

Mubolag'a-bo'rttirishning yuzaga kelish sabablari quyidagicha: satirik kulgi mo'ljaliga nishon bo'lgan obraz sifati bir xildagi epizodlarning takroriy harakatida shakllana borib, qabarib ko'rina boshlaydi. Bu hodisa shu obrazning ma'naviy dunyosini ham aniq ifodalaydi. Buni «Tuhmatchilar jazosi» va «Xasis boy bilan Abdurahmon o'g'ri» nomli ertaklar tahlilida ko'rishimiz mumkin. «Tuhmatchilar jazosi» ertagidagi salbiy obrazlar-Sultonbaqqol, qassob, qozilarning yaramas, maishiy buzuqligi bo'rttirilgan, qassob begona uyda qo'lga tushib to'nka bo'lib turishga rozi bo'ladi. Sulton boqqol beshikka belanadi, qozi esa, eshak «libos»ini kiyadi. Bu bilan ertakchi fosh etuvchi situatsiyaga yo'l ochadi. Natijada buzuqlarning biri to'nkasifat-yorilmoqchi bo'lsa, ikkinchisi soqolidan ayrilib, uchinchisi eshak bo'lib otxonaga bog'lanadi. Bu xildagi bo'rttirish satirik ertaklarga xos fosh etuvchi badiiy vositalardan biri bo'lib hisoblanadi. Salbiy sifatlar darajasi takroriy

¹ Ya. El'berg, Вопросы теории сатиры, М., 1957, стр 25.

epizodda yana ham oshadi. Uchovi birgalikda ayolni sharmanda qilmoqchi bo'lib, uyga yana kiradilar. Biroq buzuq niyat uchovining yana ta'zirini beradi. Baqqolning qulog'i, qassobning burni qirg'iladi, qozining ko'zi o'yiladi. Bu xildagi situatsiyaning mubolag'a holati umuman satirik ertak janrining tabiatidan kelib chiqadi. Yuqoridagidek yaramas sifatlarining bo'rttirilishi va o'ta mubolag'ali holatga keltirilishi kabilar ertakchining salbiy obrazlarni o'ziga xos tipiklashtirish priyomidan dalolat beradi. Ayni zamonda bu priyom ertak komizmni kuchaytiruvchi vositalardan birini tashkil etadi. asosiy sifatning bu xilda bo'rttirilishi mazkur obrazning hayotiy ekanligidan uzoqlashtirmaydi, balki uning ta'sirchanligini oshirib, uzoq esda saqlanishiga sababchi bo'ladi.

Satirik ertaklarga xos badiiy vositalardan yana biri ijtimoiy kontrastning yashirin ifodasidir. Ma'lumki «Donishmand cho'pon», «Domla bilan xizmatkor», «Murod bobo», «Uch yolg'onda qiriq yolg'on» ertaklaridagi qarshi qo'yilgan obrazlarda sinfiy ziddiyat yashiringan. Shuning uchun ham bu xildagi ertaklarda konflikt shaklan hayotiy, mazmunan ijtimoiy ma'noni kasb etadi. Chunkiy sinfiy jamiyatda u yoki bu asar mazmunida siyosiy ziddiyatning hayotiy ziddiyat shaklida ifodalanishi shubhasiz. Ekspluatatsiya avjga chiqqan bir paytda arboblarga qarshi ochiqdan-ochiq zid turish qashshoq xalq boshiga og'ir musibatlar keltirishi mumkin edi. Shuning uchun ham donishmand xalq ertaklarda kinoya, piching, kesatish, kalaka qiluvchi ko'chma ma'noli so'z va iboralardan foydalanib, ezuvchilarni fosh etar ekan, kontrast-ziddiyatning siyosiy mazmunini yashiradi. «Domla bilan xizmatkor» ertagida voqea silliq tugallangandek ko'rinadi, biroq ertak qahramoni-xizmatkorning tekinxo'r, pismiqlik domlani kalaka qilib, undan o'ch olar ekan, ijtimoiy muhitning normal hayot kechirish uchun zid ekanligiga ishora qiladi.

U yoki bu hajviy ertakchi yashirin ziddiyat, obrazlar xarakterini ochishda jonli munosabat-dialog va monologlarga ko`proq e`tibor bergan. Shuning uchun ham bu xildagi ertaklar asosan dialog-monologlardan tashkil topgan bo`lib, ular qisqa, lekin sotsiol-sinfiy mazmuni keng. Bunday dialogning vazifasi aniq, u badiiy detal` singari boshlamada ishora qilingan belgini isbotlaydi.

Bosh-ko`zingni yuvib olsangiz bo`lmaydimi?-deydi

-Qo`lim tegmasa qandoq qilay?

-Nima ish qilasiz?-deb so`radi

-Kechqurun atala qilaman, erta bilan atala qilaman. Shu bilan qo`lim tegmaydi.

-Boshqa vaqtda nima qilasiz?-dedi

-Boshqa vaqtda o`tiraman»¹.

Bu epizodda ma`lum bo`lgan dangasalik, iqtisodiy tanqislik, nochorlik, ertakchining tushuntirish tekstisiz ochilgan. Dialog mazmunida esa muhnatkash xalqning hukmron sinf vakillari, dangasalarga qarshi ishlatgan kesatiq ma`noli pichingi sezilib turadi. «Aldar ko`saning tuyasi» ertagida boyning kaltafahm ekanligi dialogda shunday ochiladi:

-Boy aka, sizga nima bo`ldi?

-Ko`rmayapsanmi, bug`doyim bosilib ketdi. Bu kimning tuyasi? Urrib qovurg`asini sindiraman.

-Bunaqa yaxshi tuyani urib nima qilasiz?

-Tuya senikiga o`xshaydi-a?

-Ha, bizniki.

-La`nati, menga ziyonini to`laysan, hm ..

-Boy aka, achchig`lanmang. Men borib haydab yuboraman.

¹ O`zbek xalq ertaklari. 1939, 127 bet.

-Yo`q, sen uni daladan haydab chiqarguncha, hamma bug`doyimni bosib payhon qiladi.

-Nima qilay, axir?-debdi Aldar ko`rsa.

-Ko`tarib olib chiq¹.

Taqvodorning tamagirliigi «Tarobeh o`qish» nomli hikoyada shunday ochiladi:

«Subxona zulmulki-ruhoniylar tulki, valmalakut-derlarki, bizni to`yg`azish uchun, hamma omilar, ro`za tut! Subxona zulmi izzati val hurmati-iftorga bizni chaqirib, yog`liq ziyofati, shirin subhati val qatlama ham, mastava-yu, qovun al uzumun va qabriyoyi val jabarut subxona zulmaliku xayullazi, zarar qilmaydi agar bo`lsa oq, qizil musallasi al zakuska! Chunki pulsiz ziyofatda boy, mullalar har qancha ko`p esalar ham loyamut! Subbuxun mehnatkashlar ro`za tutmay butun ko`zimizda jiqqa to`la xun, teki novqat qolmadi biz uchun, iftorda chiqmaydilar tutun, binobarin, o`tgan kunlarni o`ylab bo`lamiz mamnun. Rabbul malikoti, biz bo`ldik Chirkin falokati, etdi endi halokati val ruh, nima qilamiz o`hhh»². Biz har qancha «loiloha illolloh» desak ham, mehnatkashlar «illo-billo»dan nari o`tmay qo`yib, na qoldi holvaytaru sumalak va cho`zma chalpak va na nisholloh va nas`alikal jannata na`v zibaka, oshig`imiz tushdi, chikka minannor, aha... qaydasan tekin iftor!»³

Ko`rinib turibdiki, ruhoniy fatvoni buzi bo`qishidanoq uning dinga ishonmasligi, ikki yuzlamachi riyokor ekanligi ma`lum bo`ladi. Xushta`b, qiziqchi yoki ertakchi monolog vositasida salbiy personaj qiyofasida mavjud ma`naviy zaiflikni fosh etib, o`quvchi, tinglovchi qalbida ishonsizlik, g`azab, nafrat o`tini yoqadi. Monolog satirik fonda berilgan «Uch yolg`onda qIrq yolg`on» ertagining syujet asosini «kal» monologi tashkil etgan. Turli xil

¹ O`sha kitob. 236 bet.

² H..Razzaqov. O`zbek xalq og`zaki ijodida satira va yumor, Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1965, 90 bet.

³ O`zbek xalq ertaklari, 1939, 89-bet.

ko`chma ma`noli so`z, mubolag`ali allegorik va shartli obrazlar ifodasidan tashkil topgan monologda qiziqchi ertakchi yolg`on aytish inqobidan foydalanib, mehnatkash xalq hayotida mavjud ochlik, yalang`ochlikning sababkorlariga shama qiladi. Shunga qaramasdan monolog yumoristik fonda berilgan.

Ba`zan ertakchi obraz xarakterini chizishda uni o`zi izoh berib tasvirlamasdan, balki u yoki bu qahramon nutqidan foydalanadi.

-Qozi aytdi: «Boy bobo, boshqa gapni qo`ying, boyagini olib keling. O`l qirmalig`ingizni menga qilolmaysiz. Xayollatmay olib keling», -dedi.

Yoki aybdorni o`z tilidan ilintiradi. Qozi aytdi: «Bobo esingdan chiqdimi? Boya, bir quchoq narsam bor, beraman, demadingizmi? Siz shunday bir quchoq narsam bor beraman deganingizdan keyin haligi kambag`alni so`kib yubordim», -dedi. Kesatiq, piching mazmunli hajviy dialoglar ko`pincha ertak asosini tashkil etadi.

Darsda o`quvchilar dialogda ishtirok etayotgan obrazlarning nutqilaridagi ma`noni oydinlashtirish uchun keltirsa ayni muddao bo`ladi:

Bobo: -Eshonim, shu ko`priktan o`tgandan etangizni mahkam ushlab olaman, toyib ketsam, meni ushlab qolasiz.

Qozi: -Bobo, hoy bobo, bu yoqqa chiq!

Kampir: - Uyda yo`q, -debdi kampir.

Qozi: -Aldayapsan shum kampir, chaqir bu yoqqa cholni.

Qozi: - U betob bo`lsa ham, bu yoqqa chiqsin.

Kampir: -O`ldi, - debdi kampir

Qozi: - O`lgan bo`lsa ham olib ketamiz.

Keyingi kesatiq, mazmunli dialogdan kelib chiqqan kulgi kuchli, hatto sarkazm darajasiga ko`tarilgan. Ba`zan qarshi qo`yilgan obrazlar dialogdan ramz hamda ko`chma ma`noli iboralar qo`llanadi. Ayniqsa, vazir yo`g`ida uning xotiniga ko`z olaytirgan shohning buzuvchi niyati shunday boshlanadi:

- Bog`ni bog`bonga topshirib edimu, lekin bog`bon boqqa qaramay qo`ydi, debdi qizning otasi podshoga.

-Bog`bon uni parvarish qilar edi-yu, boqqa o`g`ri oralabdi,-debdi vazir podshoga shama qilib. Bu so`zni eshitgan podsho:

-To`g`ri, boqqa o`g`ri oralab qo`ydi-yu, ammo hech narsaga tegmay, bargini ham uzmay chiqib ketdi, debdi va butun bo`lgan ishlarni chol bilan vazirga aytib berib ulardan uzr so`rabdi.

Nutqda qo`llangan bog`, bog`bon va nihoyat o`g`ri kabilar ramz shaklida qo`llangan bo`lib bog` malikani, bog`bon-vazir hamda o`g`ri shohni ifodalaydi. Har bir qochiriq assiq kinoyaviy piching to`la zaharxanda kulgi bilan sug`orilgan bo`lib, xalq inkor etgan yaramas axloqni fosh etib tashlaydi. «Xafa bo`lish yo`q-a?» ertagida esa takrorlanuvchi zaxarhanda piching-«xafa bo`lish yo`q-a?» luqmasi xarakterlidir. Boy tomonidan qo`llangan bui bora uning qabih, mug`ombirona niyatini yashirmoqchi bo`lsa, mazkur luqmaning kambag`al yigit nutqida boyga qarshi qo`llanilishi, inqoblangan belgini fosh etadi. yuzaga kelgan vaziyat tinglovchi qalbida engil, lekin g`azab to`la kulgini vujudga keltiradi.

-Kel, o`g`lim, kel, menda nima ishing bor?

- Boy ota, men bir xizmat bilan huzuringizga kelgan edim.

-Ayt, o`g`lim, bajonu dil, nima deysan?

-Men bir bechora kampirning yolg`iz o`g`liman... Mahalllangizning imomini uchratib qoldim. Imom menga «Mahallamizda Qurumsoq degan boy bor. U beva-bechoralarning boshini silaydi. Sen o`sha boynikiga bor» deb maslaht berdi.

- Hmm... Juda soz, o`g`lim, mayli, senga ham «saxiylik» qilay. Boy nutqidagi «o`g`lim», «kel», «bajonudil», «juda soz», «mayli», «saxiylik qilay» kabi iboralar uning ayyorligini pardalab turadi. Ijobiy qahramon nutqidagi «huzuringizga kelgan edim», «Qurumsoq boy», «beva-

bechoralarning boshini silaydi» kabi pichinglari boyning nayrangini mavh etuvchi taktik uslubdir. Ko`rinadiki, mohir ertakchi boy sirini ochish uchun qulay bir «tuzoq» quradi. Bu «tuzoq» birinchidan, boydagi mug`ombir ayyorona tilyog`lamalikni fosh etsa, ikkinchidan, yigitdagi tadbirkorlikni tasdiqlaydi. Noiloj qolgan boy tumshug`idan.

- O`g`lim, tinya, zerikmasdan o`ynab yuribsanmi?

-Ha, boy ota, ukangizning qizlari bor ekan, menga to`y qilib berdilar, qulluq sizga, boy ota.

- Nima deding? – debdi, boy shoshib.

-Men bu yoqqa kelayotganimda, bir xat bergan edingiz-a, boy ota?

- Hay, nima bo`libdi?

-Hech narsa bo`llagri yo`q, boy ota. Men o`sha xatni bir mullavachchaga o`qitdim, xatingizda meni o`ldirishga bir tang berib, sizning nomingizdan ukangizga boshqa bir xat yozdirdim, ukangizga boshqa bir xat yozdirdim, ukangix xatni o`qib, qizini nikoh qilib berdi... Xafa bo`lmaysiz-a, boy ota?

O`qituvchi ertak personajlarining dialoglarini o`quvchilarning o`zlariga o`qitsa, ertak haqida o`quvchilarning bilimi, ko`nikmasi rang-barang bo`ladi. Vaholanki, maktab darsliklarida ertakning mavzusi, g`oyasi haqida ikki og`iz gap bilan: «Ertak bu hayotiy narsalar haqidagi uydirma bo`lib, uning asosida xalqimizda mujassam bo`lgan yaxshi va yomon haqidagi ezgu qarashlari yotadi», deb qo`yiladi. Dars mobaynida o`quvchilar o`zlari matn bilan ishlashsa, dars samaradorligi yanada oshgan bo`ladi.

Demak, ertaklarda ko`chma ma`noli luqmalardan tashkil topgan monolog va dialoglar zaharxanda komizm vositalaridan biri hisoblanib, bu usul asar personajlariga xos xarakterning u yoki bu tomonlarini aniqlaydi.

Ertak qahramonlarining individual xususiyatlarini ochib berishda til vositalari ayniqsa xarakterlidir. Ayniqsa, ijobiy komik qahramon nutqida

o`zbek tilining rang-barang leksik boyliklari, tasviriy vositalari, undagi hazil-mutoyiba, qochirim kabi jozibali so`z o`yinlari namoyon bo`lib, ular qahramonning u yoki bu xususiyati, fazilatini oydinlashtiradi va o`zida g`oyaviylikni kasb etadi. Ikki xil sinf vakillariga xos personajlardagi ikki xil nutq bir-biridan ikki xil sinf mohiyatini ifodalashi bilan ajralib turadi. So`zsiz kambag`al sinf vakilining nutqi o`zining boy mazmuni, o`tkir tanqidiy xarakter bilan ajralib turadi: «Axtarib, surishtirib yurib xo`rozni topib oldim. Bir boynikida dehqonchilik qilib yurgan ekan. Ko`rishib omonlashib, holahvol so`rasam, olti oy ishlagan haqi bir juvoldiz bo`lib, uni ham xo`jaynikiga nasya qilibdi. Xo`jayni bilan urishib, juvoldizni undirib oldim. Xo`rozga «yur ketamiz» desam «tag`in olti oyga yurganman, uch oyi o`tdi, qolgan uch oyini bitirib to`qimni olib o`zim boraman» dedi.

Ertak qahramonlaridan donishmand, zehni o`tkir keksalar, aqlli ayollar tilida ilgakli, ko`chma ma`no beruvchi so`zlar ko`p uchraydi. «Mulla bilan ko`sa» ertagida mavjud hazil ko`saning so`nggi nutqi achchiq kulgining nishonasi, ayni choqda topishmoq ma`nodagi obrazli ifoda. «Menga yana o`nta eshak bersangiz, savodini chiqarib beray, lekin bu o`g`lingizni menga bermang, podshohim». Nutqdan xon o`g`lining haligacha ma`lum bo`lmagan xarakterli muhim belgisi aniqlanadi va ertakchi ana shu belgiga urg`u berib xon o`g`lining kaltabin ahmoq, ma`naviy buzuvchiligini ta`kidaydi. Bu belgilar ko`saning o`g`lini eshakka qiyos qilishi orqali ma`lum bo`ladi. Yoki, «podsholarda qirq kishining aqli bo`ladi deyishadi», «Men sizdan ming marta roziman, sizga jannatning eshigi ochiq» kabi o`tkir satirik ko`chma ma`noli

iboralar, «Yoqma pisharsan, qazma tusharsan» kabi maqollarni uchratish mumkin.

Ko`rinib turganiday, ertaklardagi obrazlarni o`quvchilarga tanitishda, ularni tahlil qilishda o`ziga yarasha qiyinchiliklar ham bor. Zero, odatdagidek, fol`klorning boshqa janr obrazlari kabi, ertak obrazlari realistik yo`nalishda ko`rinadi. Lekin, bu aytish mumkinki, bu obrazlar mana shu zamon odamlarining tafakkur hosilasi sifatida vujudga kelgan.

Xullas, biz yuqorida tahlilga tortgan ertaklar xalqimiz ijtimoiy hayotining har xil bosqichida voqe bo`lgan yangilik, o`zgarishlarni xolis badiiy ifoda etgan asarlardir. Ertaklarni o`qitishning yosh avlod uchun ta`limiy - tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda kuchli, deb, bilamiz. Ertaklarni dars jarayonida o`rgatishda tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari, o`zbek og`zaki ijodiga oid materiallardan unumli foydalansa, darsning ta`limiy mazmuni bilan tarbiyaviy roli ortadi.

X U L O S A

O'zbek xalq ertaklari asrlar osha bugungi bizning davrimizgacha etib kelgan og'zaki ijod mahsulidir. Ertaklar o'zining qisqa, biroq keng ma'noga ega bo'lgan syujeti, hajviy pafosi, tarbiyaviy ahamiyatining zo'rligi bilan ajralib turadi.

Bugungi kun talabi maktab o'quvchilariga ham, kollej hamda oliy o'quv yurtlari talabalari uchun ham zamon talablariga mos, jahon standartlari bo'yicha bilim berishdir. Buni nafaqat tabiiy fanlar, balki shu bilan bir qatorda, gumanitar fanlar, ayniqsa, adabiyot bilan fol'klor fanlarini o'qitish, teran mushoxadali va yuksak ma'naviyatga ega insonlarni tayyorlashda adabiyotning roli tobora ortayotganida ham ko'rish mumkin.

Bizning malakaviy-bitiruv ishimizda fol'klorshunoslikda va uni maktabda o'qitishda muhim mavzulardan hisoblanadigan «Umumta'lim maktablarida ertak janrini o'qitish usullari» masalalari tadqiq qilinadi.

Darhaqiqat, metodika tekis joydan etishib chiqarilmasligi aniq. U yillar davomida shakllangan tajribalar, ilmning so'nggi yutuq va yangiliklariga suyanadi. Jumladan, fol'klor, ya'ni og'zaki ijodini o'qitish ham o'qituvchilarning avvaldan shakllangan etuk va samarali usullarini boshchilikka oladi, fol'klorshunoslik fanining so'ngi yutuqlariga ham tayanadi. Buning ustiga adabiyot fani ijtimoiy ongni rivojlantirish, milliy mafkurani shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga og'zaki adabiyotning barcha janrlaridan namunalar keltirib, muayyan bilim berish nazarda tutilgan. Ana shu janrlar orasida ertak janrlarning o'ni salmoqlidir. Bitiruv ishida yillar mobaynida maktab dasturidan o'rin olib kelgan ertak janri va uni o'qitish metodikasi masalalari

tahlil qilinadi. Biz, ertaklar bo'yicha fanda mavjud tadqiqotlar, o'qitish metodikasiga oid kitoblar bilan tanishdik va o'rni bilan foydalandik.

Hozir adabiyot fanini o'qitishda yangi pedtexnologiya, shuningdek, axborot texnologiyasidan natijali foydalanish, o'quvchining faolligini, yangicha fikrlash ko'nikmasini shakllantirish masalasi kun tartibiga kundalang qo'yilmoqda. Shunga ko'ra, tanlagan mavzuimizni o'qitishda yangicha metodika va usullar, mavzuga boshqacha yondashish, tadqiq qilish masalalari tashkil etadi.

Ishimizda tahlilga tortilgan ertaklarning o'z janriga xos motivlari, syujeti, obrazlar sistemasi va badiiy xususiyatlari tahlil qilinarkan ekan, shu narsa ma'lum bo'ldiki, qahramonlar to'qnashuvi, kurashi, hayoti haqidagi ilg'or tushunchalar bilan sug'orilgan. Biroq, koflikt echimida xalq ohangida mavjud bo'lgan sotsiol sinfiy tushunchaning tor, chegaralanganligi ma'lum bo'ladi.

Bu xususiyatlar so'zsiz, tarixiy taraqqiyotning tadrijiy takomilidan, kelib chiqadi. Bu jarayon esa ertakchi va u yashagan davr, muhitini o'rganish bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazaridan qaraganda, o'zbek malakali ertakchilarining ijodi, mahorati kelgusida o'rganilishi lozim bo'lgan ishlardan biri hisoblanadi. Chunki turli xil ertaklarning o'ziga xos ijrosi, tinglovchiga etkazish uslubi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ertak janri fol'klori asarlaridek, kollektiv ijod mahsuli. Og'zaki ijodning bunday xarakteri uni yozma adabiyotdan ajratib turadi. Shuning uchun ham kollektiv yaratgan qahramon individual obraz darajasiga ko'tarila olmaydi. Masalan, «Kal» obrazi barcha ertaklarda bir xil ko'rinish, xarakter, til xususiyatiga ega. Kal ishtirok etgan ertaklar turli xil syujet, epizod, voqea-

hodisalarga ega bo'lsa-da, individual xarakterni ifoda etolmaydi, balki obrazning u yoki bu tomonlarini ochadi, xolos.

Ma'lum bo'ladiki, obrazni individuallashtirishning turli xil usuli kollektiv ijodga xos.

Biroq, individuallashtirish darajasi nuqtai nazaridan doston bilan ertakdagi obrazlar bir-biridan farq qiladi. Chunki dostonlarda obrazni individullashtirish darajasi ertaklardagidan yuqori turadi. Masalaning bu tomonini tekshirish ertak janr mohiyatini aniqlashda ahamiyatlidir. Shu bois bunday fikr-mulohazalar o'quvchilarga ertak janri xususiyatlarini tushuntirishda muhim sanaladi.

O'quvchilarni darsga jalb etishning, qiziqtirishning yo'llari nihoyatda ko'p. Mana shularning aksariyatidan dars jarayonida samarali foydalanish-o'qituvchining mahoratiga ham bog'liq bo'ladi. Chunonchi, darsda ertakning syujeti, g'oyasi va obrazlar bo'yicha tayyorlangan har xil illyustrativ tablitsalar bilan suratlar, portretlar, ertaklar haqidagi fol'klorshunos-olimlarning fikrlari yozilgan plakatlar va boshqalardan dars jarayonida unumli foydalanilsa o'quvchining zukkoligini, faolligini orttirishga shubha yo'q.

Mazkur fikr-mulohaza yuritilgan masalalarni alohida ko'rib chiqib, tadqiq etish, o'zbek fol'kloristikasining noma'lum tomonlarini aniqlash, o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv ishimizni yozishda adabiyot o'qitish metodikasi mutaxassislari va metodistlarning ilmiy izlanishlaridan ham foydalandik.

Tadqiqot jarayonida maktabda ertak janrini o`qitish usullari masalalarini umumlashtirib, biz qo`yidagi vazifalarni amalga oshirish lozim degan xulosaga keldik:

1. Ertak janrini o`qitish orqali o`quvchilarni xalqimizning urf-odatlarini, tarixi va estetik salohiyati bilan tanishtiramiz;
2. Ertaklar yoshlarga xalqimizning o`tgan zamonlardagi hayoti, yashash tarzi, yoshlarning his-tuyg`ulari bilan tanishtiribgina qo`ymasdan, yoshlarning o`y-fikrlarini shakllantiradi, xalqimiz ardoqlagan yangi fazilatlarni o`zlariga singdirishga ta`sir ko`rsatadi;
3. Ertaklarni o`qitishda eng avvalo, matn bilan ishlashni bilish, ya`ni, o`quvchilar asar syujeti to`la o`zlashtirgan bo`lishi kerak;
4. Mazkur mavzudagi asarlarni o`qitishda dars maqsadiga mos keladigan qo`shimcha materiallar, kitoblar, illyustrativ rasmlar, ertak bo`yicha olingan mul`tfil`mlar va sahna ko`rinishlaridan natijali foydalanish;
5. Mavzuni o`tish jarayonida notanish so`zlar va iboralarga izoh berish, ayniqsa, er, suv atamalariga urg`u berish;
6. Mavzuni tushintirida ma`ruzani imkon qadar kamaytib, matn bilan ishlashga e`tiborni kuchaytirish, o`quvchi faolligini ta`minlash;
7. Darsda o`quvchining passivligi, sustligiga yo`l qo`ymaslik, matnni ifodali va rollarga bo`lib o`qishga alohida e`tibor berish.

Xulosa qilib aytganda, ertak janrini o`qitishda o`qituvchi adabiyotshunoslik va fol`klorshunoslik fanlaridagi yangiliklar va metodik kitoblar bilan atroflicha tanishib, ularni o`zlashtirib, shuningdek, o`z darslarida samarali foydalanishga

erishishga, atalga mavzuni o`qitishda, uni o`qitish usullarini yaratishda yaxshi natijalarga erisha oladi.

Bugungi kunning talabi ham mana shulardan kelib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. I.A.Karimov. Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch. Toshkent.: «Ma`naviyat», 2008.
2. I.A.Karimov. Adabiyotga e`tibor-kelajakka, ma`naviyatga e`tibor. Toshkent.: «Ma`naviyat», 2009.
3. Yo`ldoshev Q. Adabiyot o`qitishning ilmiy-nazariy asoslari. - T.: «O`qituvchi», 1996.
4. Mirqosimova M. Badiiy tahlil usullari (Metodik tavsiyalar). Muallif. - T.: 1993.
5. Rasulov A. Badiiylik bezavol yangilik. –T.: 2007.
6. To`xliiev B. Adabiyot o`qitish metodikasi. T.: “Yangi asr avlodi” 2006.
5. Matchonov S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. –T.:O`qituvchi, 1996.
6. Adabiyot. Akademik litseylar uchun o`quv dasturi, T.: 2000.
7. Aliev A. O`quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. – T.: O`qituvchi, 1991.
8. To`xliiev B. Adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. –T.: O`qituvchi, 2002.
9. To`xliiev B., Niyozmetova R., Boltaeva I. Darsliklar bilan ishlash.T.: 2009.
10. Afzalov M. Xalq ertaklarining tasnifi. O`zbek xalq ijodi. T.: Fan, 1967.
11. Jumanazarov U. O`zbek fol`klori va tarixiy vokelik. T.: O`qituvchi,1991.
12. Jumanazarov U. Tarix, afsona va din. T.: 1990.
13. Imomov K. O`zbek fol`klori ocherklari, uch tomlik, t.II, 40-b.
14. Imomov K. O`zbek xalq prozasi. T.: 1984.
15. Mallaev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiëti. G`.G`ulom nomidagi adabiët va san`at nashriëti. T.: 1974.
16. Propp V.Ya. Istoricheskie korni volshebnoy skazki. M.-L.: 1946.
17. Propp V.Ya. Fol`klor i deystvitel`nost`. M.: 1976.
18. Sarimsoqov B. O`zbek marosim fol`klori. T.: 1986.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB	
Ertak janri va uni o`qitish usullari.....	10
II BOB	
Ertaklarda obrazlar turkumini o`rgatish yo`llari.	25
XULOSA	44
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	50

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Filologiya fakul'tetining o'zbek tili va adabiyoti bo'limi bitiruvchisi Adamboeva Nazokatning «Umumta'lim maktablarida ertak janrini o'qitish usullari» mavzuidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar

X u l o s a s i

Umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning yangicha usul va metodlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinib kelinmoqda. Shu ma'noda mazkur malakaviy ishning dolzarbligi umumta'lim maktablarida adabiyot dasturlarini bugungi kun nuqtai nazaridan o'rganish va Ogahiy she'riyatini o'qitishning yangi qirralarini ochib berishi bilan belgilanadi.

N.Adamboeva ishni yozish jarayonida mavzuga doir o'zbek, qardosh va chet el adabiyotshunoslarining ilmiy-nazariy adabiyotlaridan keng tarzda foydalandi. Bu esa mavzuning ilm-fanimizning bugungi talablari asosida yoritilishi imkonini berdi.

Bitiruv ishi kirish, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan tashqari ikki mustaqil bobdan tashkil topgan. Ishning asosiy qismida umumta'lim maktablarida adabiyot darslarida ertak janrini o'rganishning yangicha usullarini ishlab chiqish, ayniqsa, tarbiyaviy ahamiyatga ega ertaklarni maktab o'quvchilariga etkazib berishda qo'llaniladigan pedagogik vositalarni ko'rsatib berish masalalari o'rganildi. Shuningdek, adabiyot o'qituvchisi lirik asarlarni o'qitish jarayonida asosiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan nuqtalarga atroflicha to'xtalgan, bitiruv ishida ilgari surilgan masalalar to'g'risida umumlashma nazariy xulosalar chiqara oldi.

Bitiruvchi ishning xulosasida umumta'lim maktablarida ertak janrini o'rgatish barobarida o'zi tadqiq qilgan ish natijalarini to'g'ri bayon qilgan.

Xulosa shuki, Nazokat Adamboevaning malakaviy ishi nihoyasiga etgan, fikr-mulohazalar misollar bilan dalillangan, xulosalar umumlashtirilgan.

Shuni inobatga olgan holda, bitiruvchi Nazokat Adamboevaning «Umumta'lim maktablarida ertak janrini o'qitish usullari mavzuidagi bitiruv malakaviy ishini himoyaga tavsiya qilaman.

Ilmiy rahbar:

I. Dil'manov

filologiya fanlari nomzodi

**Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Filologiya fakul'teti
O'zbek tili va adabiyoti bo'limi bitiruvchisi Adamboeva Nazokatning «Umumta'lim
maktablarida ertak janrini o'qitish usullari» mavzuidagi bitiruv malakaviy ishiga**

TAQRIZ

Adamboeva Nazokatning malakaviy-bitiruv ishi o'zbek xalq ertaklarini maktabda adabiyot darslarida o'rgatish, dars jarayonida ertak janri talqiniga ko'proq e'tibor berish orqali, ertak janrini o'qitishning ta'sirchan yo'llarini belgilash borasida dastlabki ishdir. Bu masala maktab tajribasida, ertak va dostonlarimiz tahlili jarayonidagi o'qituvchi va o'quvchi hamkorligida yoritiladi. Ishda xalq og'zaki ijodida muhim o'rin tutuvchi an'anaviy motivlar bevosita qadimgi ajdodlarimizning dunyoqarashlari bilan bog'liq holda tadqiq etiladi. Kezi kelganda, ishda o'zbek xalq ertaklarida an'anaviy motivlarning insoniyat taffakuri taraqqiyotida tutgan o'рни va ahamiyati haqida ham asosli fikrlar bildiriladi.

Umumta'lim maktablarida ertak janrini o'qitishning noa'naviy usullarini tadqiq qilayotgan bitiruvchi masalaga jiddiy yondashgan, maktab tajribalaridan ko'plab misollar keltirgan va adabiyot o'qitish metodikasi printsiplariga rioya qilgan holda umumlashmalar chiqargan.

Boblarning joylashishi, ularning mantiqan bog'lanishi va fikrlarning ravonligi menda yaxshi taasurol qoldirdi.

Umuman, Nazokat Adamboevaning «Umumta'lim maktablarida ertak janrini o'qitish usullari» mavzuidagi bitiruv malakaviy ishi OAK talablariga to'la javob beradi va ushbu ishni yaxshi yozilgan ishlar qatorida himoyaga yuborishga loyiq, deb hisoblayman.

H. Abdullaev,

Berdax nomidagi QDU Filologiya fakul'teti

dekani, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Fakul`tet: Filologiya. Talaba: Adamboeva Nazokat
 Kafedra: O`zbek adabiyoti. Ilmiy rahbar: f.f.n., dots.I.Dilmanov

O`QUV YILI: 2011-2012

Bitiruv malakaviy ishi mavzui:

«UMUMTA`LIM MAKTABLARIDA ERTAK JANRINI O`QITISH USULLARI»

MUALLIF ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarbligi: Malakaviy-bitiruv ishining dolzarbligi shundan iboratki, unda umumta`lim maktablarida adabiyot va fol`klor asarlarini o`qitish oldiga qo`yilgan maqsadni amalga oshirishda ertak janri muhim ahamiyatga ega. Ertaklarni o`quvchilarga puxta singdirish yo`lini izlash, asar syujeti qalamga olingan davrni ko`rsatishga, qahramon xarakterining shakllanib borishi tarixini namoyon etishga, asar g`oyasini ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqotning dolzarbligi satirik ertaklarning voqelikni o`ziga xos badiiy aks ettirish tamoyillari ilk bor ko`rsatib berilganligi, satirik ertaklarning tarkibi va asosiy motivlari tarixiy voqelik, qadimgi tasavvurlar silsilasi va epik tafakkur an`analari bilan bevosita bog`liklikda o`rganilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari: Tadqiqotning asosiy maqsadi maktabda o`quvchilarga ertak janrining o`ziga xos xususiyatlari, ertaklarning voqelikni o`ziga xos badiiy aks ettirish tamoyillari, satirik obrazlarning tarkibi va asosiy motivlari, tarixiy voqelik, qadimgi tasavvurlar silsilasi va epik tafakkur an`analarini o`rgatishning samarali yo`llarini aniqlash va tavsiya qilishdir.

**Tadqiqot ob`ekti va predmeti:** Ishimizning asosiy ob`ekti sifatida biz bir necha xalqlarning ertaklariga, ularning dunyo haqidagi ilk tasavvurlariga murojaat qildik. Mavzuimizda kutarilgan muammoni tadqiq qilishda fol`klorshunoslik va adabiyot o`qitish metodikasi fanlariga oid ko`plab nazariy qarashlarga tayandik.

Tadqiqot uslubiyati va uslublari: Ishning metodologik asosini o`zbek fol`klorshunosligida taniqli olimlarning ertak janriga oid ilmiy qarashlari, adabiyot

o`qitishdagi ilmiy izlanishlar tashkil etadi. Tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy-metodologik uslub asosida ish yuritildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi: Ushbu bitiruv ishi maktabda ertak janrlarini o`qitish usullariga ko`proq e`tibor berish, o`quvchilarga o`qitishningsamarali usullarini ilmiy asosda o`rganish yo`llarini belgilash borasida dastlabki umumlashtiruvchi ishdir.

Bu masala ertak janriga oid asarlar tahlili jarayonida yoritiladi. Ishda xalq og`zaki ijodida muhim o`rin tutuvchi obrazning tarixiy asoslari bevosita qadimgi ajdodlarimizning dunyoqarashlari bilan bog`liq holda tadqiq etiladi. O`quvchilarga ertaklarning insoniyat badiiy taffakuri turaqqiyotidagi o`rni va ahamiyatini atroflicha etkazish yo`llari umumlashtiriladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiqu: Ishning materiali hamda ilmiy-nazariy xulosalaridan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin: umumta`lim maktablarida fol`klorni o`qitish masalalari yuzasidan olib boriladigan tadqiqotlarda, ilmiy-amaliy anjumanlarda, Oliy o`quv yurtlari, akademik litsey va kollejlarda ma`ruza matnlari tayyorlash, maxsus kurslar o`tishda foydalanish.

Ish tuzilishi va tartibi: Malakaviy ish kirish, asoslama, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati qismlardan tashkil topgan.

Ilmiy rahbar:

I.Dil`manov

Talaba:

N.Adamboeva